

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

\_\_\_\_\_ Tarix \_\_\_\_\_ FAKULTETI

\_\_\_\_\_ 153 -guruhi talabasi Zarifov Komiljon Botir o`g`li

\_\_\_\_\_ 5111600- “ Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi” ta`limi  
yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

# Bitiruv Malakaviy ishi

Mavzu: Globallashuv sharoitida axborot kommunikatsiya  
texnologiyalarining roli

Ilmiy rahbar:

dots. A. Abdullaev.

Urganch 2019 yil

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3-6</b>
<b>I - Bob Globallashuv sharoitida O‘zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti.</b>	
1.1. O‘zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi.....	7-26
1.2. Davlat va jamiyat qurilishi tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	26-36
<b>II- Bob Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi.</b>	
2.1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari barkamol avlod istiqbolini belgilovchi omil.....	37-43
2.2. Globallashuv davrida axborot tahdidlari va ularning oldini olish yo‘llari.....	44-55
<b>Xulosa.....</b>	<b>56-57</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>58-59</b>

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda zamonaviy hayotni axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, bu texnologiyalar qisqa muddat ichida aloqa qilish imkoniyatlari va axborot olish usullari to'g'risidagi tasavvurlarimizni keskin o'zgartirib yubordi. Hozirgi vaqtda axborot kamunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyat turmushining barcha sohalarida –davlat boshqaruvida, iqtisodiyot, siyosat, tibbiyot, ta'lim, fan va madaniyat, maishiy turmush va boshqa sohalarda keng qo'llanmoqda. Mubolag'asiz aytish mumkinki, xech bir mamlakat axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining doimiy ravishda takomillashuviga etarli darajada e'tibor bermay turib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi. Bu soha axborot olish, uzatish va tarqatish erkinligini berish bilan birga odamlarga o'zining intellektual salohiyati yanada to'liq foydalanish imkoniyatini yaratib, barqaror iqtisodiy o'sish, farovonlik darajasini oshirishga erishishda yordam beradi.

Tabiiyki, bizning mamlakatimiz ham mazkur jarayonlardan chetda qolayotgani yo'q va global axborot jamiyatini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda. Darhaqiqat, o'tgan yigirma sakkiz yil mobaynida O'zbekistonda Yurtboshimiz rahnomoligida axborot sohasini modernizatsiya qilish, axborot –kommunikatsiya texnologiyalarining eng so'ngi yutuqlarini hayotning barcha jabhalariga joriy etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda milliy axborot infratuzilmasini yanada takomillashtirish va modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvini axborotlashtirish masalalari "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da o'z ifodasini topgan.

Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari sohasini huquqiy tartibga solish maqsadida mamlakatimizda 11 ta qonun, 4 ta Prezident farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 40 ta qarori, 600 dan ziyod qonunosti hujjatlari qabul qilinib, bir qator milliy dasturlar ishlab chiqilgan. Xususan, 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot –komunikatsiyalari

texnologiyalarini rivojlantirish dasturi, O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya tarmog'ini 2010 yilgacha bo'lgan davrda rekonstruksiya qilish va rivojlantirish milliy dasturi va boshqalar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgani bois, ushbu sohani jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, uning yalpi ichki mahsulotidagi ulushini ko'paytirish va uni xorijiy hamda mamlakatimiz investorlari uchun yanada jozibador qilish imkoniyatlarini yuzaga chiqardi. O'zbekistonda keyingi yillarda sun'iy yo'ldosh aloqa tarmog'i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo'lga qo'yildi. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiya tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko'rsatuv va eshittirishlar internet global tarmog'i orqali real vaqt rejimida jaxongauzatilmoqda. Respublikada internet tizimidan foydalanuvchilar soni 7,7 millionni tashkil etdi. Internet xizmatlaridan 4,27 million nafar abonent foydalanmoqda. Mamlakatimiz xududida ro'yxatga olingan domenlar soni 2011 yilda qurilishi belgilangan 950 kilometr uzunlikdagi aloqa liniyasidan tarmoqdagi 432,45 kilometri qurib bitkazildi.

Uyali aloqa abonentlari soni jadal sur'atlar bilan ko'payib bormoqda. Xozirgi kunda yurtimiz mobil aloqaning rivojlanish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning oldingi o'rnida turgan o'nta mamlakat qatoriga kiradi. Jumladan, agar 2005 yil noyabrda yurtimizda uyali aloqaning birinchi millioni olingan bo'lsa, 2011 yilning boshiga kelib, bu boradagi ko'rsatkich 19 milliondan oshib ketdi. Bu raqam 2000 yilga nisbatan 200 barobar ko'pdir. Agar o'n yil avval mamlakatimiz aholisining har bir nafariga 4 donadan kam mobil telefon to'g'ri kelgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 600 donadan oshib ketdi. Biroq jaxon miqyosida kechayotgan jarayonlarda mustahkam o'rin egallash uchun har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustivor yo'nalishlarini o'z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lish nihoyatda zarur. Shundan kelib chiqqan holda, axborot sohasiga doir amaldagi bir qator qonunlar qabul qilish dolzarb

ahamiyat kasb etadi. Chunki qonun normalarini yanada takomillashtirish demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nihoyatda muhimdir. Mustaqil O‘zbekiston axborot texnologiyalarining taraqqiyot yo‘li tahliliga bahishlangan mazkur risolaning maqsadi o‘tgan qisqa tarixiy davr mobaynida axborot sohasida erishilgan yutuqlarning ahamiyatini ko‘rsatib berishdan iborat.

**Mavzuning ilmiy o‘rganilganlik darajasi.** Mustaqillik yillarida O‘zbekiston axborot kamunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarga joriy qilish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Bu sohaning huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekiston axborot texnologiya taraqqiyotini yoritishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy maqolalar, risolalar va manografiyalar chop qilindi.

Bular quyidagilar:

H. Muhiddinov, A. Usmonov, I.SHamsieva,<sup>1</sup> R. Majidov,<sup>2</sup> T. Eshbekov,<sup>3</sup> S.Sirojiddinova,<sup>4</sup> A. Xolbobaev,<sup>5</sup> V. Nikaloev,<sup>6</sup> S. Mahsumov,<sup>7</sup> va boshqalarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi.** Ishni tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezident asarlari metodologik asos, mavzuga oid ilmiy maqolalar, risolalar va monografiyalar hamda ommaviy axborot vositalari va internet materiallari muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.** Ishda mustaqillik yillarida axborot texnologiyalarining rivojlanshi va uning xayotga joriy qilinishi xamda axborot xurujlari va ularning bartaraf qilish yo‘llarini faktik ma’lumotlar asosida xar tomonlama taxlil qilish va umumlashtirish asosiy maqsad xisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar:

- O‘zbekistonda axborot kammunikatsiyasi texnologiyalarining rivojlanishining keng yoritib berish;
- Davlat va jamiyat qurilishi tizimida axborot kammunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatish;

- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari barkamol avlod istiqbolini belgilovchi omil ekanligini mavjud materiallar asosida tahlil qilish va umumlashtirish;
- Axborot tahdidlari va ularning oldini olish yo‘llarini ko‘rsatib berish;

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.** Ishni materiallaridan umumta’lim maktablari, akademik litseylar, oliy o‘quv yurtlari o‘quvchilari va talabalari O‘zbekiston tarixi, ma’naviyat asoslari, Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar ba boshqa ijtimoiy- gumanitar fanlarini o‘rganishda muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin. Shuningdek, bitiru malakaviy ishning materiallaridan ma’naviy- ma’rifiy tadbirlarda xam foydalansa bo‘ladi.

**Bitruv malakaviy ishning tuzilishi va xajmi.** Ish –Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **I - Bob Globalashuv sharoitida O‘zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti**

### **1.1. O‘zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi**

Axborot tarmog‘i (AT) – aloqa tizimlarida kompyuterlar yordamida alishishga xizmat qiluvchi qurilmalarning bir-biri bilan bog‘langan xolati axborot texnologiyalari – axborotlarni yig‘ish, tizimlash, uzatish, iste‘molchi uchun foydalanishga qulay holga keltirish jarayoni kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiriladigan, tartibga solingan va tashkillashtirilgan tizim va amaliy dasturlar majmuasidir. Axborot texnologiyalari va ulardan oqilona foydalanish tufayli insonning ishlab chiqarish faoliyati, kundalik muloqat sohasi, ongu tafakkuri kengayib boradi. Zamonaviy hisoblash texnikasi va aloqa vositalari asosida axborotlarni to‘plash, saqlash va kerakli manbalarni uzatishning zamonaviy kompyuterlashtirilgan usullari bugun tobora rivojlanib bormoqda.

Bugun barqaro taraqqiyotga erishishda axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni har qachongidan ham ko‘ra hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Qaysi sohaga e‘tibor qaratmang, ushbu texnologiyalardan foydalanish tobora kengiyotganiga guvoh bo‘lasiz. Aytish kerakki, respublikamizda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, uning xuquqiy-tashkiliy hamda moddiy- texnik bazasini kun talablaridan kelib chiqib yanada mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bularning barchasi pirovard natijada birinchi prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “O‘zbek modeli” tamoyillarini hayotga samarali tatbiq qilish, yurtimiz ravnaqi va xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish, odamlar dunyoqarashini o‘zgartirish, mamlakatimiz nufuzini oishirshda katta ahamiyat kasb etib kelayapti. SHunga mos ravishda qisqa vaqt ichida o‘zimizning ilg‘or Axborot kommunikatsiya tizimi hamda infratuzilmasiga ega bo‘lganimiz diqqatga sazovordir. Bu boradagi sa’y-xarakatlar izchil davom ettirilayotgani sohaning yorqin kelajagini ta‘minlaydi, albatta.

Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish hamda axborot texnologiyalarining jadal suratda rivojlanishi uchun yurtimizda tegishli huquqiy

asoslarni yaratish va takomillashtirish taqozo etiladi. Shu zaruratdan kelib chiqib, bir qator huquqiy hujjatlar hayotga tadbiq etildi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti 2002-yil 30 mayda e’lon qilingan “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmonida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish mezonlari belgilab berildi. Fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab – ehtiyojlarini yanada to‘liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishning zamonaviy tizimlarini joriy etishning birinchi galdagi muhim vazifalari yaratildi<sup>1</sup>.

Mazkur farmonning ijrosini amalda ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6 iyunda 200 –sonli “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Qaroriga muvofiq 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Mazkur dastur zamonaviy texnik infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirishga, internetga kirib borishni kengaytirishga, internet tarmog‘ining milliy segmentini rivojlantirishga hamda kompyuterlashtirishni, mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar industriyasini va eksportini rivojlantirishni rag‘batlantirishni yuqori malakali kadrlar potensialini tayyorlash, qonunchilikni takomillashtirish, axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Shuningdek, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq 13-14 sessiyalarida qabul qilingan bir qator qonunlar mamlakatimizda axborotlashtirish, elektron xujjatlar aylanishi hamda elektron raqamli imzo, elektron xujjatlar aylanishi hamda elektron tijorat tizimlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratib berdi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot –kommunikatsiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni xalq so‘zi. 2002 y. 30 may



Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi so'zlagan nutqida "Barkamol avlod yili" davlat dasturida ko'rsatilgan ishlarining bajarilishini sarhisob qilar ekan, xususan, ta'lim sohasiga axborot – telekommunikatsiyasi va kompyuter texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan yutuqlarga quyidagicha baho beradi:

“Dastur doirasida 2010 yilda 560 ta etakchi klaster maktablari qiymati qariyb 6 million AQSH dollari bo'lgan 13 ming 500 ta kompyuter texnikasi bilan ta'minlandi, 750 dan ortiq qishloq maktabi zamonaviy o'quv –laboratoriya uskunalari va multimedia vositalari bilan jihozlandi, 1,5 mingta qishloq maktabi o'qituvchilari umumiy qiymati qariyb 13 million AQSH dollari bo'lgan 3 ming 400 ta shaxsiy kompyuter bilan ta'minlandi.”

Ayni paytda mamlakatimizdagi barcha, ya'ni 12 mingdan ortiq ta'lim muassasalari, ilmiy va madaniy- ma'rifiy tashkilotlar ta'lim portaliga ulandi. Bu masofadan turib o'qitish usullarini ta'lim tizimiga keng joriy etish, o'quvchi va yoshlarga boshqa xil axborot –kommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish imkonin berishi bilan ayniqsa ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar, internetni nafaqat maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlariga, balki har bir oilaga joriy qilish xarakatlari bugungi kunda tobora kuchayib bormoqda. Aynan zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalari tizimini keng ko'lamda rivojlantirish mamlakatimizning taraqqiyot darajasini ko'rsatadigan mezonlardan biri bo'lib, xizmat qiladi”<sup>1</sup>.

Haqiqatan, hozirgi vaqtda mamlakatimizda kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, o'quvchi yoshlarning bu sohada bilim olishini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaritilmoqda. Umumta'lim maktablarini axborotlashtirish hamda ularda axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga oid loyihalarga

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot –kommunikatsiyalarini joriy etish to'g'risida”gi farmoni xalq so'zi. 2002 y. 30 may

muvoqif, maktablarni zamonaviy kompyuter jihozlari va texnikasi bilan ta'minlash, o'quv jarayonida multimedia va elektron darsliklardan, raqamli ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish, axborot-resurs markazlarini tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kollej va litseylar, oliy ta'lim dargohlari, ma'naviyat maskanlari, muzeylarni "Ziyonet" jamoat ta'lim axborot tarmog'iga ulashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa ota-onalar, o'qituvchilar, o'quvchi yoshlar, pedagogika sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlar uchun ta'lim, ilmfandagi so'ngi yangiliklardan boxabar bo'lish, maktablararo o'zaro tajriba almashish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Axborot –telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarini joriy etishning asosiy yo'nalishlaridan biri- telekommunikatsiya sohasidir. Bu borada birinchi prezident Islom Karimov Respublika Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarga to'xtatildi. "Telekommunikatsiyalar to'g'risidagi qonun normalarni yanada takomillashtirish, raqamli teleradioeshittirish tizimiga o'tish bo'yicha tadbirlar davlat dasturining ishlab chiqilishi ham ushbu vazifani hal etishga xizmat qiladi. Mazkur dastur raqamli teleradioeshittirishlar infratuzilmasini shakllantirish, bu boradagi faoliyatini xuquqiy jihatdan tartibga soladigan samarali tizimni yaratishga qaratilishi darkor<sup>1</sup>"

Ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha Respublikada mustaqillik yillarida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Buning natijasi o'laroq bugunga kelib:

- Respublikada xalqaro telefon stansiyalari, ya'ni xalqaro kommutatsiya markazlarining soni 5 taga etkazildi (Toshkent-1, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Toshkent-2);
- Xalqaro optik tolali telekommunikatsiya tarmoqlarga ulanishlar soni 6 taga etkazildi-Qozog'iston -1 (Abay), Turkmaniston

---

<sup>1</sup> Axmedov T. "Elektron xukumat" mutaxassislar tomonidan fuqarolik jamiyatining kelajagi sifatida baholanmoqda. Jamiyat 2013 y. 8 fevral.

(Ashxabad), Qozog'iston-2 (Beynov), Qirg'iziston (O'sh), Tojikiston (Tursunzoda), Afg'oniston (Hayraton). Har bir yo'nalishda ulanishning uzatish tezligi STM -16 (2,5) dan 4 ta STM-64 (40 Gbit/s) gacha tashkil etish imkoniyati yaratilgan.

Bu o'z navbatida mamlakatimizda xalqaro yo'nalishda telefon aloqasi , ma'lumotlarni uzatish va internet tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish uchun telekommunikatsiya tarmog'i barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlariga bog'lanish uchun qo'shimcha ravishda yo'ldoshli aloqa tizimlari orqali ham kanallar tashkil etilgan. SHu bilan birga Xalqaro paketli kommutatsiya markazi imkoniyati 2,8 Gbit/s tezlikda internet tarmog'iga ulanish tashkil etilgan bo'lib, agar bu ko'rsatkich tezligi 2006 yili 0, 231 Gbit/s ekanini hisobga olsak, 4 yil ichidagi o'sish 12 barobardan yuqori ekanini ko'ramiz. 2011 yilda internet tarmog'i xalqaro kanallarining ma'lumot o'tkazish tezligi 10 Gbit/s ga etkazish rejalashtirilgan. Ma'lumotlarni uzatish tarmog'i uchun xar bir viloyat markazigacha 10 Gbit/s tezlikda ulanish imkoniyati yaratilgan.

Mamlakatimizdagi barcha tuman telefon stansiyalari raqamlashtirilgan. Ularning umumiy sig'imi 2,1 milliontani tashkil etadi. SHuningdek, Toshkent shahridagi yangi Call Canter ishga tushirib, videotetefoniya, vertual ofis, konferensiyaaloqa va boshqa xizmat turlari tatbiq etilgan.

Qishloq telefon stansiyalarini raqamlashtirish 71,9% ni tashkil etadi. Xozrgi vaqtda qishloqlarda "O'zbektelekom mobayl" tarmog'i orqali telefon aloqasi va ma'lumotlarni uzatish tarmog'ini kengaytirish ishlari olib borilmoqda. Joriy yilda qo'shimcha 100 ta baza stansiyalar o'rnatilib qamrov hududi kengaytirildi.

Toshkent Zarafshon shaharlarida abonentlarni FTT x optik tolali kabelni manzilga etkazish texnologiyalari asosida tashkil etilgan bo'lib, 8 Mbit/s gacha uzatish tezligida abonentlarni ma'lumotlarni uzatish tarmog'iga ulanishi imkoniyati yaratilgan

Bundan tashqari, ma'lumotlarni simsiz uzatish tarmog'i mamlakatimizning bir qator shahar va tumanlarida WiMAX texnologiyasi asosida tashkil etilgan.

Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda telekommunikatsiya rusurslari va tarmoqlarining ishonchli faoliyatini, ulardan markazlashgan holda foydalanishni ta'minlash maqsadida, Respublika telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish tizimining shakllantirilishi va samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan maxsus vakolatli O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi ishchi organlari tayinlangan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmoqlarini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi ishga tushirilib, "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining transport, ma'lumot o'tkazish va mobil aloqa tarmoqlari hamda EAST Telekom qo'shma korxonasining telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanib monitoring qilinmoqda.

O'zbekiston telekommunikatsiya tarmog'ini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish, mavjud telefon stansiyalarni zamon talablariga javob berishini ta'minlash maqsadida 60 dan ortiq investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Natijada mamlakatimiz bo'yicha barcha shahar, viloyat va tuman markazlari darajasida telefon stansiyalari zamonaviy texnologiyalar asosida yangilanib, raqamlashtirish darajasi 93,7 foizga etkazildi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, respublika miqyosida shahar viloyat va tuman markazlarini yuqori tezlikdagi zamonaviy optik aloqa tarmoqlari bilan 100 foiz ta'minlandi<sup>1</sup>.

Telekommunikatsiya soxasining asosiy yo'nalishlaridan biri bu jaxon internet tarmog'ida foydalanishdir. Mamlakatimizda internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni 2002 yili 137 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2006 yili 855 mingtani tashkil etdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi so'zlagan nutqida yurtimizda internet

---

<sup>1</sup> Axmedov T. "Elektron xukumat" mutaxassislar tomonidan fuqarolik jamiyatining kelajagi sifatida baholanmoqda. Jamiyat 2013 y. 8 fevral.

tarmog'idan foydalanuvchilar soni 6 million kishini tashkil etganini ta'kidlagan bo'lsa, undan keyin o'tgan vaqt ichida bu ko'rsatkich 7, 547 million kishiga etishi va bundan 4,185 million mobil aloqa orqali internetdan foydalanuvchilar ekani ushbu yo'nalishning nihoyatda jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda internet tarmog'ining rivojini yana quyidagi raqamlarda ko'rish mumkin:

-xalqaro axborot tarmog'idan foydalanish tezligi 2011 yilning birinchi choragida 2,8 Gbit/s ga etgan bo'lib, keyingi bir yil ichidagi o'sish taxminan 96 foizni tashkil etadi.

- 2011 yil mart oyida ma'lumot uzatish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar soni 903 taga etgan bo'lib, 2016 yili bu ko'rsatkich 425 tani tashkil etgan. Jamoa bo'lib foydalanish punktlarining soni mingdan oshdi;

- 2010 yil boshida O'zbekiston milliy domenining soni 9546 tani tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, ularning soni 11 mingdan oshib ketdi, 2007 yili bu ko'rsatkich 3616 tani tashkil etgan.

Xozirgi vaqtda UZ Tomas, Dillur Com, Frstnal-D? Sarkor Telekom? BCC-TV inform kabilar faoliyat yuritib kelmoqda.

Internet xizmatlari uchun tariflar 1510 AQSH dollari 2010 yil yakunida internet tarmog'idan foydalanishning o'rtacha narxi 338 so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich yilining boshiga nisbatan 13 foizga kamaygan.

Umuman olganda, telekommunikatsiya sohasining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sezilarli darajada ortdi hamda bu sohaning ichki va tashqi investorlari uchun jozibadorligi yanada oshdi. Oxirgi besh yil ichida aloqa va axborotlashtirish sohasiga 1,2 milliard AQSH dollaridan ortiq hajmda chet el investitsiyalari jalb qilindi. 2010 yil ichida telekommunikatsiya sohasining barqaror va proporsional o'sishi natijasida soha korxonalarining daromadi oldingi yilga nisbatan 5,5 foizga ortdi.

Telekommunikatsiya tarmog'ining rivojlanganini mamlakatimizda mobil aloqaning o'sish darajasidan ham bilib olsa bo'ladi. 2011-yilning aprel oyiga kelib, O'zbekistonda mobil ko'rsatkich 2004-yili 137 mingtani, 2006-yili 2 milliondan

oshib ketdi. Bu ko'rsatkich 2004 yili 137 mingtani, 2006 yili 2 million 466 mingtani tashkil etgan.

O'zbekistonda mobil aloqa xizmatini hozirgi vaqtda beshta aloqa operatorlari amalga oshirmoqda. Bulardan eng yiriklari Ucell –O'zbekiston va Bilayn kompaniyalari bo'lib, ular GSM standartlari faoliyat yuritadilar.

Bugungi kunda mamlakatimizda teleradiodasturlarni sun'iy yo'ldosh orqali tarqatish tarmog'i tashkil etilgan.

Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasida keng qamrovli ishlarni amalga oshirish natijasi o'laroq, keyingi o'n yil ichida elektron ommaviy axborot vositalari etti borabar oshdi. Hozirgi vaqtda faoliyat ko'rsatayotgan telekanallarning 53 foizi va radiokanallarning 85 foizi nodavlat kanallar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimga alohida e'tibor berib, quyidagilarni ta'kidladi: 2010-yilda Toshkent va Samarqand shaharlarida ko'p dasturli televizion kanallarni tarqatish xizmatlarining sifatini oshirish, xalqaro axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratadigan zamonaviy raqamli televideniya ishga tushirilganini alohida ta'kidlash zarur. Darhaqiqat, mamlakatimizda bu yo'nalishda ulkan ishlar rejalashtirilgan bo'lib, 2015-yilgacha raqamli televideniya to'liq o'tish mo'ljallangan. 2011-yilning o'zida Nukus, Urganch, Andijon, va Qarshi shaharlarida to'rtta raqamli uzatgich o'rnatilib ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Aholini raqamli televideniya qurilmalari bilan ta'minlash maqsadida Navoiy viloyati erkin industrial hududida raqamli televideniya signallarini qabul qilish qurilmalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi<sup>1</sup>.

Axborot telekommunikatsiya texnologiyalarini davlat sektorida rivojlantirish, davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarining faoliyati samaradorligini oshirishda 2005 -2010 yillarda milliy telekommunikatsiya tarmog'i va ma'lumot uzatishni rivojlantirish Dasturi va 2015-2011 yillarda davlat boshqaruvchiga axborot – kommunikatsiya texnologiyani tatbiq etish Dasturi muvoffaqiyatli qo'llanib

---

<sup>1</sup> Maxsumov S. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari: mavjud holat va ko'rilayotgan choralar.Xalq so'zi 2010 y. 3-iyun

kelinmoqda. Shu bilan birga, “Davlat boshqaruvida elektron hujjat aylanishi tizimini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasi” hamda “Davlat organlarining integrallashgan axborot tizimini yaratish konsepsiyasi” ishlab chiqilgan

Axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvchiga joriy etish nafaqat markazlarda, balki hududlarda ham rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarda bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari huzurida xo‘jalik hisobidagi (viloyat) kompyuterlashtirish markazlari tashkil etilgan ;
- UZINFOCOM markazi tarkibida “Viloyat kompyuterlashtirish markazlariga amaliy yordam berish guruhi” tashkil etilgan;
- Viloyat kompyuterlashtirish markazlarining aksariyati bugungi kunda shahar va tuman hokimligida o‘zlarining xududiy bo‘linmalari (tuman kompyuterlashtirish markazlari)ga ega.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini xududlarda rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan hukumat qarorlarini bajarish natijasida barcha viloyat hokimliklarida lokal va korporativ tarmoqlar mavjud, elektron raqamli imzo kalitlari va elektron hujjat aylanishi tizimlari ishlatilmoqda

“Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozimligini ta’kidladi.

Xozirgi kunda davlatimiz rahbari va xukumati tomonidan axborot – kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida mamlakatimizning deyarli barcha davlat organlari o‘z veb-saytlarini yaratib, internet tarmog‘ida joylashtiridi. SHu bilan birga, ushbu veb-saytlarning funkcionallik darajasi oshdi, dizayni yaxshilandi hamda ular ishonchli ravishda faoliyat ko‘rsatmoqda.

Davlat organlari veb-saytlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida UZINFOCOM markazi tomonidan 2006-yildan boshlab muntazam ravishda 119 ta veb –saytlari monitoringi olib borildi.

O‘tgan vaqt davomida barcha bo‘g‘indagi davlat organlari veb-saytlariga kirish mumkinligi o‘rtacha darajasining muntazam ravishda ortib borishi kuzatilmoqda. Maxalliy davlat hokimiyati organlari veb-saytlariga kirish mumkinligi o‘rtacha darajasining yildan-yilga ortib borishini alohida aytib o‘tish lozim. Agar 2006 yilda bu ko‘rsatkich 52,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2011 yilning boshiga kelib, 93, 3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirilgan 256-sonli qarorida tasdiqlangandavlat organlarining rasmiy veb-saytlarida qo‘yiladigan talabalaridan kelib chiqqan holda UZINFOCOM markazi har chorakda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining veb-saytlarini, ularning so‘rovlariga asosan, amaldagi qonun hujjatlariga mosligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazadi.

2003-yil 11-dekabrda Elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni ijrosini ta‘minlash maqsadida milliy elektron raqamli imzo (ERI) infratuzilmasini rivojlantirish masalalarini yoritish va ushbu sohadagi huquqiy hamda texnik tartibga solish masalalarini muhokama qilish uchun internet tarmog‘ida maxsus veb-sayti tashkil etilgan. Ushbu veb-saytda amaldagi me‘yoriy-huquqiy baza bilan tanishish hamda ro‘yxatga olingan ERI kalitlarini ro‘yxatga olish markazlarining restrlarini kiritish imkoniyati mavjud. ERIning rivojlantirish va joriy etish, ularni davlat boshqaruviga, biznes va iqtisodiyot sohasiga joriy etish bo‘yicha hukumat qarorlarini amalga oshirish natijasida mamlakatimizda ERikalitlari va sertifikatlari soni yildan-yilga oshib bormoqda. Misol uchun, 2006 yilda ERI kalitlari soni 93 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2011 yil holatiga ko‘ra 163531 tani tashkil etdi<sup>1</sup>.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyotning barcha sohalari, ta‘lim madaniyat va umuman kundalik hayotimizga chuqur kirib kirib borayotgan

---

<sup>1</sup> Maxsumov S. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari: mavjud holat va ko‘rilayotgan choralar.Xalq so‘zi 2010 y. 3-iyun



bugungi sharoitda hukumatning va davlat organlarining fuqarolar bilan bo‘ladigan munosabati ham o‘zgarib bormoqda. Bu munosabatlar an’anaviy, ya’ni davlat idorasiga shaxsan borish, qog‘oz shaklidagi ariza va ma’lumotlarni to‘ldirish, mas’ul shaxs qabuliga yozilish, navbatda turish va shunga o‘xshash boshqa jarayonlarni o‘z ichiga olgan shakldan, AKT dan keng foydalangan holda yuqoridagi kamchiliklardan holi bo‘lgan, ya’ni “elektron hukumat” tizimi shakllana bosqichma-bosqich o‘tmoqda.

Axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvida qo‘llash samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi va istiqbolli ekani hamda jahon tajribasini e’tiborgaolgan holda respublikamiz rahbariyati va hukumati tomonidan Hukumatportalini yaratish va rivojlantirish masalasi respublikada elektron hukumatini shakllantirish va rivojlantirish ning ustivor vazifasi qilib belgilandi.

Qabul qilingan hukumat qarorlari va chora-tadbir rejasini amalga oshirish natijasida respublikamizda elektronxukumatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan Hukumat portalining dinamik veb-sayti 2003 yilning sentyabr oyida ishlab chiqildi va sinov tarzida [www.gov.uzmanzili](http://www.gov.uzmanzili) bilan internet tarmog‘ida joylashtirilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 17-ekabrdagi Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalini internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy davlat axborot resursi hisoblanadi. Bu bilan Hukumat portalida chop etilgan axborot bilan teng kuchga ega ekani belgilab berilgan.

Xozirgi kunda Hukumat portalini respublikamizning eng ko‘p murojat etiladigan internet resurslaridan biriga aylandi. Portalga bir oyda 30 mingdan ortiq internetdan foydalanuvchi tashrif buyuradi. Portal orqali 130 mingdan ortiq boshqa veb-saytlarga o‘tishlar qayd etilgan, bu respublikamizdagi eng mashhur 15 ta veb-saytlar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009-yil 20-yanvardagi “Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1041-son qaroriga asosan “Qo‘shimcha

modullar (G 2 V va G 2 S ) kiritilgan platformadagi yangi xukumat portalini ishga tushurish” loyihasini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi xukumat portalining yangi versiyasi ishlab chiqildi va internet tarmog‘ida [www.m.gov.uz](http://www.m.gov.uz) manzili bo‘yicha joylashtirildi<sup>1</sup>.

Interaktiv davlat xizmatlarini rivojlantirish va joriy etish, ularning soni va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida tinimsiz ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunga kelib aholiga davlat organlarining veb-sayti orqali ko‘rsatiladigan ko‘plab on-layn xizmatlari joriy etilgan. Agar 2007-yilda Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari (BIDX)ning soni 49 tani tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda 94 taga etgan. Bugungi kunda davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarining veb-saytlari orqali BIDX asosida 384 turdagi interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatilayotgan bo‘lib, ularning 239 tasi on-layn tarzida ishlayapti.

2010-yilning aprel oyida Toshkent shahrining Sergeli tumanida Birlashgan Millatlar Tashkilotining “O‘zbekiston Hukumatiga Mamlakat rivojlanishi uchun AKT siyosatini shakllantirish va joriy etishda ko‘mak” (ICTP) loyihasi tashabbusi bilan davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha “Yagona oyna” markazi ochildi. “Yagona oyna” markazi davlat xizmatlarini ko‘rsatish shaklini o‘zgartirgan holda xizmatdan foydalanish uchun kerak bo‘ladigan jarayonlar sonini qisqartirishga qaratilgan yangicha yondashish hisoblanadi. Yangilikning mazmuni shundan iboratki, taqdim etiladigan davlat va jamoat xizmatlari bitta joyda mujassamlashtiriladi, fuqarolar esa vaqtlarini sarflamasdan, “Yagona oyna” markazida turli ma’lumotnomalar, ko‘chirmalarini olishlari, ro‘yxatdan o‘tishlari va boshqa xizmatlardan foydalanishlari mumkin.

Xozirgi kunda YAOM tuman aholisiga 14 ta davlat xizmati tomonidan 50 ga yaqin xizmatlarni taqdim etmoqda. YAOM ning joriy etilishi qog‘ozbozlikni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Joriy etilgan axborot tizimi qog‘oz shakldagi hujjat aylanishidan qisman voz kechish imkonini berdi, bundan tashqqari, asosiy xizmatlar bilan fayllar almashishini ta’minlash maqsadida

---

<sup>1</sup> Majidov R. Axborot erkinligini ta’minlashda telekommunikatsiyalarning roli xususida. Fuqarolik jamiyati. 2002 y. 4-son

elektron aloqani oʻrnatish va oʻz navbatida, fuqarolar arizalari boʻyicha qaror qabul qilishni tezlashtirish boʻyicha ishlar amalga oshirilmoqda.

“Yagona oyna” markazi ishini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, aholiga interaktiv xizmatlarni taqdim etish maqsadida ushbu markazning veb-sayti ishlab chiqilgan va undagi internet tarmogʻida joylashtirilgan veb-sayt orqali markaz va koʻrsatilayotgan xizmatlar toʻgʻrisida batafsil maʼlumot olish mumkin.

Mamlakatimizda axborot –kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlashga alohida ahamiyat berilayapti. Buning isboti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarida oʻz aksini topgan. Xususan, “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2005-yil 2-iyundagi 91-son qaroriga muvofiq Toshkent axborot texnologiyalari sohasida mutaxassislarni tayyorlash boʻyicha bosh oliy taʼlim muassasasi etib belgilandi va uning Samarqand, Fargʻona, Urganch, Nukus va Qarshi filiallari tashkil etildi.

Bugungi kunda TATU da 17 ta taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalovrlar va 18 ta mutaxassisliklar boʻyicha magistrlar tayyorlanadi.

Universitet oltita fakulteti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 1 apreldagi 1088-son qaroriga asosan tashkil etilgan va qoʻshimcha kino-teleoperatorlik, kompyuter grafikasi va ovoz yozish texnologiyalari taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha kadrlarni tayyorlash yoʻlga qoʻyilgan. Bugungi kunda Universitetda faoliyat yuritayotgan 27 ta kafedrada 320 dan ortiq fanlar boʻyicha darslar olib borilmoqda.

2010 yilad “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi doirasida respublika aholisining AKT boʻyicha savodxonligini oshirish maqsadida TATU tomonidan tayyorlangan 794 nafar instruktor- oʻqituvchilar joylarda tashkil etilgan oʻquv kurslarida 806188 kishini oʻqitdi, ulardan 633664 kishi (79 foiz) yoshlarni tashkil etadi.

2010 yilda aloqa va axborotlashtirish bo'yicha 14667 nafar mutaxassis o'z malakasini oshirdi, ulardan 6261 nafari AKT yo'nalishida malakasini oshirgan bo'lib, bu jami malaka oshirganlarning 42 foizini tashkil etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, axborot- kommunikatsiya texnologiyalari sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlarning bosh yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki, bu yo'nalish nafaqat respublikani axborotlashgan jamiyatga aylantirish uchun xizmat qiladi, balki mamlakat iqtisodini rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish uchun, Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, o'ziga xos lokomotiv rolini o'ynaydi. Ma'lumki, telekommunikatsiyalar signallar, belgilar, matnlar, tasvirlar, tovushlar yokiboshqa elektromagnit tizimlaridan foydalangan holda uzatish, qabul qilish, qayta ishlashdir. Telekommunikatsiyalar axborot olish uzatish va tarqatish erkinligini berish bilan birga odamlarga o'z intellektual salohiyatidan yanada to'liq foydalanish, fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish, mamlakat hayotida faol qatnashish imkoniyatini yaratib fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishga ko'maklashadi. Telekommunikatsiyalar sanoat, tarnsport, aloqa, qishloq xo'jaligi, savdo qurilishi kabi tarmoqlar taraqqiyotida, xizmat ko'rsatish, xavfsizlikni ta'minla, ijtimoiy sohalar, ilm-fan va texnikani rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bugun jamiyatni telekommunikatsiyalarsiz, zamonaviy axborot resurslaridan foydalanmasdan turib rivojlantirib bo'lmaydi- ular ijtimoiy hayotning ajralmas qismi va ijtimoiy taraqqiyotning mezoniga aylangan.

Shu bois, yurtimizda telekommunikatsiyalarning hozirgi holati va ularni rivojlantirish istiqbollari masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Aytish joizki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirishda zamonaviy talab va standartlar hamda konstitutsiyaviy tamoyillar asosida qabul qilingan o'nga yaqin qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari, qarorlari, qonunosti hujjatlari bir qancha milliy dasturning roli katta.

“Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da “Telekommunikatsiyalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritish haqidagi qonuni ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib o'tilganining tub mohiyatida zikr etilgan maqsadlar mujassamdir. Ushbu Qonun Oliy Majlis Senatining ettinchi yalpi majlisida maqullanib, Prezidentimiz tomonidan imzolandi hamda matbuotda e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonuni telekommunikatsiyalar sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishga, foydalanuvchilar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga, jamiyat va davlat qurilishining hamma sohalariga zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan<sup>1</sup>.

Qonunning 8-moddasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar telekommunikatsiyasohasida maxsus vakolatli organning vakolatlarini yanada aniqlashtirishga qaratilgandir. Bu telekommunikatsiyalar sohasidagi mahsus vakolatli organning "UZ" milliy domeni zonasidagi domen nomlarini ma'muriy boshqarish tartibini va protseduralarini tashkil etish, shuningdek, foydalanuvchilar, qayd etuvchilar hamda domenning ma'muriyati o'rtasida uni tartibga solish bo'yicha bir qator choralarni belgilash imkonin yaratadi. Qonunda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat xokimiyati organlarining yuridik va jismoniy shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv xizmatlar ko'rsatish maqsadida umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlarining samarali ishlashi va rivojlanishi uchun shart –sharoitlar yaratishi borasidagi majburiyatlari belgilab qo'yildi.

Qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar telekommunikatsiyalar sohasini tashkil qilishning mavjud xuquqiy va iqtisodiy asoslarini yanada takomillashtirish, aholi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hamda davlat boshqaruvi organlarining telekommunikatsiya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarining

---

<sup>1</sup> Majidov R. Axborot erkinligini ta'minlashda telekommunikatsiyalarning roli xususida. Fuqarolik jamiyati. 2002 y. 4-son

qondirilishini ta'minlash imkonini beradi. Ayni paytda mazkur chora-tadbirlarning hayotga izchil tatbiq etilishi siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanishga, ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy xuquqlarini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

2012-yil oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan hamkorlikda "Siyosiy modernizatsiya jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishining dolzarb vazifalari" mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazdi. Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda axborot sohasi mutaxassislari ishtirok etdi.

Anjumanda davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish va rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligi va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash, Internet va axborot resurslari va axborot texnologiyalari bozorini yanada rivojlantirish prinsiplari va huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari, axborotlashtirish resurslaridan samarali foydalanish, yagona axborot makoni taraqqiy ettirish kabi masalalar atroflicha muhokama etildi.

Ma'lumki, parlament palatalari qo'shma majlisida taqdim etilgan Konsepsiyada davlat va jamiyat qurilishi tizimida hozirgi zamon axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish axborot sohasini yanada isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Binobarin axborot kommunikatsiya texnologiyalari siyosiy modernizatsiya, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ildam rivojlantirish jarayonlarida tobora muhim rol o'ynamoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda axborot

kommunikatsiya texnologiyalari mobil aloqa raqamli televideniya, internet xizmatlarini rivojlantirishning mustahkam normativ huquqiy bazasi yaratildi, -dedi O'zMTDP fraksiyasi a'zosi Shuhrat Dexqonov Xususan, o'tgan davrda ushbu sohaga tegishli 11 ta qonun , 3 ta farmon, mamlakat Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 40 dan ortiq qarori qabul qilinib, bosqichma-bosqich va tizimli islohatlar amalga oshirib kelinmoqda. Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlarida kompyuter texnikasi bilan ta'minlanganlik darajasi 75 foizdan yuqori bo'lib, qog'ozsiz xujjat aylanishi 80 foizdan ortdi. Dyarli barcha davlat organlarining Internet global tarmog'ida rasmiy veb-saytlari faoliyat ko'rsatmoqda, Fakt va raqamlarga murojat qiladigan bo'lsak, bugungi kunga kelib elektron raqamli imzo kaliti egalarining soni 280 mingtadan oshdi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining barqaror sur'atlar bilan o'sib borishida ushbu sohaning o'рни va ahamiyati biqiyos darajada ortib bormoqda. Xususan, aloqa va axborotlashtirish tizimidagi kompaniya, korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatlari hamda xizmat ko'rsatish darajasi jadal sur'atlar bilan oshib borib, yangi texnologiyalar, innovatsion echim va loyihalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga keng joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentinnig 2012-yil 21-martdagi Zamonaviy axborot -telekommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori axborot sohasidagi keng qamrovli islohatlarni jadallashtirishda muhim omil bo'ldi. Albatta, sohada amalga oshirilayotgan bu kabi keng qamrovli islohatlar mamlakatimizda milliy axborot makoni yanada taraqqiy etishi va uning jaxon axborot maydoniga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Oliy Majlis qonunchilik palatasining deputatlari o'z chiqishlarida axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini, shu jumladan, axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish holatini hisobga olib, axborot kommunikatsiya

texnologiyalari sohasida qonunchilikni hamda boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan aniq takliflar bildirishdi<sup>1</sup>.

Muxokamalar jarayonida axborot texnologiyalari bozorining muhim qismi bo'lgan dasturiy ta'minot industriyasini rivojlantirishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish yuzasidan ham aniq taklif va tavsiyalar bildirildi. Xususan, dasturiy ta'minot ishlanmalari yaratish va ularni etkazib berish sohasida davlat buyurtmlari tizimidan foydalanish, dasturiy ta'minot industriyasiga kelayotgan investitsiya oqimini huquqiy jixatdan rag'batlantirish davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning maqsadli dasturini ishlab chiqish va qo'llab quvvatlashning maqsadli dasturini ishlab chiqish va qabul qilish bu boradagi muhim choralardan biri sifatida taklif qilindi.

Konferensiyada so'zga chiqqanlar 2012-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish dasturining bajarilishi bo'yicha har tomonlama va batafsil axborot berdilar. Jumladan, 2012-2014 yillar davrida davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy davlat xokimiyati organlarining Milliy axborot tizimiga ulanadigan axborot tizimlari ro'yxatiga kiritilgan bir qator dolzarb loyihalarning bajarilishi, xususan, tadbirkorlik va tijorat faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirish va rag'batlantirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, ishlov berish, tizimlashtirish va saqlash, ularni amaliyotga joriy etish samarasi, axborot kutubxona va axborot resurs markazlarida yig'ma elektron katalogni yaratish hamda to'la matnli ma'lumotlar elektron bazasidan foydalanishni ta'minlash masalalari bo'yicha yig'ilganlarga zarur ma'lumotlar taqdim etildi.

Ilmiy –amaliy konferensiya yakunida mamlakatimizda siyosiy modernizatsiya jarayonlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

---

<sup>1</sup> Xo'jaev E. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari- barkamol avlod istiqbolini belgilovchi omil. Milliy tiklanish. 2012y. 20 iyun



Ayni kunlarda Farg‘ona viloyat xokimligi, soliq, xalq ta‘lim, sog‘liqni saqlash boshqarmalarida elektron xujjat aylanishi tizimi joriy etildi. O‘tgan yili viloyat mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasining veb-sayti ishga tushirildi. Mazkur saytga doimiy ravishda viloyatdagi bo‘sh ish o‘rinlari xaqida ma‘lumotlar kiritib borilmoqda. Farg‘ona shahridagi mas‘uliyati cheklangan jamiyatida esa kitoblarning elektron shakllari, turlari dasturlar tayyorlanmoqda.

Farg‘ona viloyati “O‘qituvchining elektron kundaligi” va O‘zbekistonda elektron kitoblardan foydalanish kabi loyihalar bo‘yicha mamlakatimizda tajriba sinov xududi xisoblanadi. Xususan, Farg‘ona shahridagi 13 umumta‘lim maktabining 5 a sinfida o‘quvchining elektron kundaligi loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur tajriba natijasida o‘quvchilarning o‘zlashtirish 92 foizdan 100 foizgacha ko‘tarildi.

Viloyatdagi 648 maktabda veb-saytlar ochilgan bo‘lib, maktabda amalga oshirilayotgan ishlar, o‘tkazilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, o‘qituvchilar tomonidan yaratilayotgan elektron darsliklar mazkur veb-saytlarga joylashtirib borilmoqda. O‘tgan yili Farg‘ona shahridagi 40 –ixtisoslashgan umumta‘lim maktabi respublika miqyosida o‘tkazilgan Eng yaxshi maktab veb-sayti ko‘rik tanlovida birinchi o‘rinni egalladi. Bu ham viloyatda axborot texnologiyalarni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarning amaliy samarasidir.

Yaratilayotgan ana shunday imkoniyatlar natijasida o‘quvchilar zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta egallab, bu borada zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqda<sup>1</sup>.

Maktab ta‘limni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradigan interfaol elektron doskaning amaliyotga kirib kelishini o‘qituvchilar qizg‘in qo‘llab –quvvatlab, undan foydalanish tartibini faol o‘zlashtirmoqda. Chunki, elektron doska barcha fanlarga oid darslarning rang-barang va qiziqarli tashkil etilishini

---

<sup>1</sup> Xo‘jaev E. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari- barkamol avlod istiqbolini belgilovchi omil. Milliy tiklanish. 2012y. 20 iyun

ta'minlaydi. O'qituvchining darsga mavzuga yondashuvini tubdan o'zgartiradi. Darsdagi va vazifalarini takomillashtiradi.

Ushbu zamonaviy vositadan foydalanishning quyidagi uch asosiy usulini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Interfaol elektron doska yordamida klaviatura va sichqonchasiz ham kompyuterda ishlash mumkin. Bu usul asosan darsning tashkiliy qismlarida kompyuterning faylli tizimlaridan foydalanishda ma'lumotlarni ko'rishda, internetdan foydalanish mumkin.
- Dars jarayonida slayd, matn, rasm kabi elektron shakldagi materiallarni markerdagi yozilgan ma'lumotlarga qo'shib foydalanish, ya'ni elektron qalam yordamida materiallarga tegishli qaydlarni qo'yish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish mumkin.
- Interfaol elektron doskaga o'rnatilgan dasturiy ta'minot bilan ishlash imkoni mavjud. Elektron markerga yangi obe'ktlarni yaratish va ular bilan ishlash uchun qo'shimcha "Elektron instrumentlar" joylashtirilgan.

O'quvchilar elektron doskadan foydalanish jarayonida diqqatliroq va qiziquvchan bo'lishadi, ya'ni u e'tiborni jamlash va ushlab turshning bebaxo vositasidir.

O'g'il -qizlarning fanga qiziqishini, bilim olishga ishtiyoqini oshiradi, shaxs sifatida shakllanishiga, iqtidorini yuzaga chiqarishga yordam beradi.<sup>1</sup>

## **1.2. Davlat va jamiyat qurilishi tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish iimkoniyatlari**

Siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozim.

Bugungi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish jamiyat qurilishininig dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda

Tabiiyki, soʻz avvalombor jamoat tashkilotlarining kompyuterlashtirish, bu borada malakali mutaxassislarni tayyorlash haqida bormoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasida yuridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qoʻllagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi “Axborotlashtirish toʻgʻrisida” gi qonunning qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muxim ahamiyat kasb etadi, deya taʼkidlanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning oʻzi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish, vakolatli davlat organlari va tashkilotlariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojat etish huquqi mustahkamlab qoʻyilgan. Oʻzbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning xuquq va manfaatlariga daxldor boʻlgan xujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

Fuqarolarning axborotni izlash va olish boʻyicha konstitutsiyaviy huquqlarini taʼminlash demokratik va xuquqiy davlatning shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jaxon tamoyillarini hisobga olgan xolda, milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgandir. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

- Har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini roʻyobga chiqarish, axborot resurslaridan foydalanishini taʼminlash;
- Davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va xududiy axborot tizimlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida Oʻzbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;

- Davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o‘zaro aloqada ishlashini ta’minlash;
- Axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- Axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko‘maklashish
- Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni rag‘batlantirish;
- Tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash va rag‘batlantirish, investitsiyalar jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;
- Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.
- Keyingi yillarda mamlakatimizda kompyuterlashtirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish borasida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida axborot –kommunikatsiya texnologiyalari faoliyat ko‘rsatishining muhim iqtisodiy, xuquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab beruvchi normativ xuquqiy baza yaratildi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risidagi 3080-son Farmonida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to‘laroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jaxon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jaxon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kabi masalalar

maqsad qilib olingan. Mazkur farmonda ” kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda ularning zamonaviy tizimlarini joriy etishning birinchi galdagi vazifalari belgilab berilgan bo‘lib, xususan, ularga quyidagilarni keltirish mumkin<sup>1</sup>.

- axborot telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda dasturiy vositalar, ma’lumotlarning axborot bazalarini ishlab chiqish, respublika, tarmoq va mahaddiy axborot –kommunikatsiya tarmoqlarini shakllantirish, kompyuter va telekommunikatsiya texnikasini ishlab chiqish sohalarida faoliyat yuritish uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni tashkil qilish

- real iqtisodiy tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta’lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholi turli qatlamlarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo‘lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish

- maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o‘quv yurtlarining ta’lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo‘llashga asoslangan ilg‘or ta’lim tizimlarini kiritish;

- zamonaviy ishonchli va xavfsiz milliy ma’lumotlar axborot bazalarini yaratish, axborot resurslari va xizmatlari bozorini rivojlantirish, axborot almashinuvining elektron shakllariga izchillik bilan bosqichma bosqich o‘tish

- milliy va xalqaro axborot tarmoqlariga g‘oyat tezkorlik bilan kirib borishni joriy etish, aholi maskanlari, shu jumladan, qishloq aholi maskanlarining ularga kirib borishini ta’minlash;

Mahalla kompyuter texnikasi va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni tashkil etish<sup>1</sup>

Shuningdek, farmonda kompyuterlashtirish va axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish va u

---

<sup>1</sup> Eshbekov T. Zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalari: atama va ta’riflar. Fuqarolik jamiyati. 2012 y. 4-son

shu yo‘nalish bo‘yicha mamlakatimizda yuqori muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida strategik ustivor maqsadlarni amalga oshirishga doir amaliy chora-tadbirlarni ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyunda “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 200 son qarori imzolandi. Unda xususan, kompyuterlashtirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi tasdiqlangan bo‘lib. Mazkur dastur zamonaviy texnik infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirishga, kompyuterlashtirishni mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar industriyasini va eksportini rivojlantirishni rag‘batlantirish, yuqori malakali kadrlar salohiyatini shakllantirish, qonunchilikni takomillashtirish, axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha shart-sharoitlar;

Maktablar, kasb-xunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o‘quv yurtlarining ta‘lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo‘llashga asoslangan ilg‘or ta‘lim tizimlarini kiritish;

Zamonaviy, ishonchli va xavfsiz milliy ma‘lumotlar axborot bazalarini yaratish, axborot resurslari va xizmatlari bozorini rivojlantirish, axborot almashuvining elektron shakllariga izchillik bilan bosqichma-bosqich o‘tish;

Milliy va xalqaro axborot tarmoqlariga g‘oyat tezkorlik bilan kirib borishni joriy etish, aholi maskanlari, shu jumladan, qishloq aholi maskanlarining ularga kirib borishini ta‘minlash;

Mahalliy kompyuter texnikasi va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni tashkil etish<sup>1</sup>

Shuningdek, farmonada kompyuterlashtirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish va u shu yo‘nalish bo‘yicha mamlakatimizda yuqori muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish va u shu yo‘nalish bo‘yicha mamlakatimizda yuqori muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida strategik ustivor maqsadlarini amalga oshirishga doir amaliy chora-tadbirlarni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyunda "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 200-son qarori imzolandi. Unda xususan, kompyuterlashtirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi tasdiqlangan bo'lib, mazkur dastur zamonaviy texnikainfratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirishga, kompyuterlashtirishni, mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar industriyasini va eksportini rivojlantirishni rag'batlantirish, yuqori malakali kadrlar salohiyatini shakllantirish, qonunchilikni takomillashtirish, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, mamlakatimiz iqtisodiyotining jaxon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish dasturining maqsadli vazifasi hisoblanadi. Unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan:

- telekommunikatsiyalar infratuzilmasini rivojlantirish
- Internet tarmog'ining milliy segmentini rivojlantirish
- kompyuter texnikasi bilan ta'minlash va kompyuter tarmoqlarini rivojlantirish;
- Dasturiy mahsulotlar industriyasini barpo etish
- axborot –kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash;
- normativ-huquqiy bazani standartlash va sertifikatlashni takomillashtirish.
- SHuningdek, qarorda mazkur yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga ham katta ahamiyat berilgan bo'lib, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlarida va akademik litseylarda dasturiy vositalar, ma'lumotlarning axborot bazalarini, multimedia, kompyuter texnikasini ishlab chiqish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori malakali mutaxassis va texnik xodimlar, shuningdek, kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanuvchilar tayyorlashni kengaytirish lozimligi uqtirilgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Eshbekov T. Zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalari: atama va ta'riflar. Fuqarolik jamiyati. 2012 y. 4-son

So‘ngi yillarda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 2003 yil Ikkinchi chaqiriq 13-sessiyasida qabul qilingan “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi va “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlar hamda Oliy Majlisning 2004 yil Ikkinchi chaqiriq 14 sessiyasida qabul qilingan Elektron tijorat to‘g‘risidagi va Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi qonunlarni misol keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 26 sentyabrda e‘lon qilingan Elektron raqamli imzodan foydalanishning huquqiy –normativ bazasini takomillashtirish to‘g‘risidagi qarori yuqorida keltirilgan Elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi qonunning bajarilishini ta‘minlovchi qonunosti normativ hujjatlardan hisoblanadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi me‘yoriy huquqiy bazasinnig eng muhimlaridan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot kommunikatsiya texnologiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi 2005 yil 8 iyuldagi 117-son qarorini aytib o‘tish mumkin. Ushbu qarorga asosan:

- 2010 yilgacha telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, ma‘lumotlarni uzatish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning maqsadli yo‘nalishlari;
- 2010 yilgacha mahalliy davlat boshqaruvi va davlat hokimiyati organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llash dasturi;
- Milliy axborot qidiruv tizimini shakllantirish va rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Mamlakatimiz maktablari, litseylari, kollejlari o‘quvchilarining, oliy ta‘lim muassasalari talabalarining axborotga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini har tomonlama qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shunnigdek, internet tarmog‘ining milliy segmentida ta‘lim va bilim beradigan axborot resurslarini rivojlantirish maqsadida 2005 yil 28 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining birinchi

---



Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim tarmog‘ini yaratish to‘g‘risida”gi 191-son qarori imzolandi.

Unda O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, Xalq ta’limi vazirliklarining hamda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining Respublikadagi turli tuzilmalar tomonidan ma’lumotlar uzatish tarmoqlarida tashkil etilayotgan ta’lim va yoshlarga mo‘ljallangan axborot resurslarini yagona axborot tarmog‘iga birlashtirish va tizimlashtirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi.

Xususan, tegishli vazirliklarga Ziyonet tarmog‘ini shakllantirish va rivojlantirishni, shuningdek, Resurs markazi va bo‘limlarining tarmoq axborot resurslarini muntazam suratda jamlash va yangilash borasida samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash topshirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligini Kompyuter hamda axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy qilish “O‘zinfokom” markazi tarkibida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi bo‘limlari bilan Ziyonet tarmog‘ining Resurs markazini tashkil etish lozimligin qayd etildi<sup>1</sup>.

2005 yil 22 noyabrda imzolangan Vazirlar mahkamasining Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazasni takomillashtirish to‘g‘risidagi qarorida Davlat axborot resurslarini shakllantirish va davlat organlarining axborot tizimlarini tashkil etish tartiblari to‘g‘risidagi nizamlar tasdiqlangan.

Davlat soliq xizmati organlarining zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda soliq to‘lovchilarga axborot xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan moliyaviy hisobotlar va hisob-kitoblar taqdim etishda elektron hujjat aylanishini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 4 avgust kuni imzolangan “Soliq to‘lovchilarga axborot xizmati ko‘rsatish va Davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini yanada takomillashtirish

---

<sup>1</sup> Turdiev N. Usmonova K. Interfaol elektron doska. Ma’rifat. 2013y. 6-fevral

tshg‘risida”gi qarori imzolandi. Unda, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2006 -2010 yillarda soliq to‘lovchilarga axborot xizmati ko‘rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini takomillashtirish dasturida nazarda tutilgan tadbirlar bajarilishiga doir ishlar tashkil etilishini ta‘minlash lozimligi uqtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi “Respublika aholisini axborot –kutubxona bilan ta‘minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori zamonaviy talablarni hisobga olgan holda kutubxona tarmog‘ini tashkil qilishni takomillashtirishga, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarni qondirishga, madaniy, ma‘naviy-ahloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo‘naltirilgan prinsipial yangi axborot markazlarini barpo etish, shuningdek, aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida imzolangan huquqiy-normativ hujjat hisoblanadi. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasining kutubxonasi, viloyatlar ilmiy- universal kutubxonalari, shuningdek, Toshkent shahar markaziy kutubxonasi negizida idoraviy jihatdan O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga bo‘ysunuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlarini tashkil etish va bu markazlarning asosiy vazifalari qilib, xususan, quyidagilar belgilangan:

- Ta‘lim muassasalari o‘quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta‘lim olishi va mustaqil ravishda ta‘lim olishga ko‘maklashish.
- Milliy, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko‘lamda targ‘ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo‘lishini ta‘minlash, ma‘naviy boy va uyg‘un kamol topgan shaxsning ijodiy o‘sishi uchun imkoniyat yaratib berish;
- Yangi axborot texnologiyalari asosida aholiga axborot xizmati ko‘rsatish;
- Madaniy ta‘lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta‘lim muassasalari, mahalliy

o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish

- Universal axborot resurslari, milliy va xorijiy nashrlarni shakllantirish, saqlash va foydalanish uchun berish.

O‘zbekiston respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi hamda O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi 2007 yil 4 iyulda birgalikda qaror qabul qilib, unda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida” Elektron raqamli imzo to‘g‘risida elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi qonunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi “Tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risidagi” 100-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 4 avgustdagi “Soliq to‘lovchilarga axborot xizmati ko‘rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 157-son qaroriga muvofiq, “moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarini elektron shaklda taqdim etishda axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha elektron hujjat aylanishi ishtirokchilari uchun yo‘riqnoma” ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Ushbu yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi” Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi “Tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risidagi 100-son qarori” to‘g‘risida.

Mamlakatimizda qog‘ozdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ushbu maqsadlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va tizimlarini joriy etuvchi apparatlar faoliyatini maqbullashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi 155-sonli qarori imzolanib, unda respublikada qog‘ozni tejash va undan

oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadigan qo'shimcha chora tadbirlar kompleksi tasdiqlandi<sup>1</sup>.

Shuningdek, ushbu qarorda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab berilgan:

-2011 yilda boshqaruv organlarining ma'muriy-boshqaruv xodimlarini kompyuter texnikasi bilan ta'minlashni yakunlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish, qog'oz yozishmalarini, eng avvalo, ichki idoraviy qog'oz yozishmalarini tegishli ravishda qisqartirgan holda elektron hujjat aylanishini kengaytirish parametrlarini qayta ko'rib chiqish va 2011 -2015 yillar uchun yangi maqsadli parametrlarni belgilash, lokal va korporativ kompyuter tarmoqlarini, shuningdek, boshqa axborot tizimlarini joriy etish;

- boshqaruv organlari va ishlab chiqarish korxonalarini rahbarlari hamda mutaxassislarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi malakasi va ko'nikmalari darajasini oshirish, ularni davriy attestatsiyadan o'tkazishni joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan normativ xuquqiy hujjatlarning barchasi respublikamizda axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda jaxon axborot hamjamiyatiga kirishni ta'minlash bo'yicha huquqiy asos va yo'riqnoma vazifasini o'tashi shubhasizdir.

---

<sup>1</sup> Turdiev N. Usmonova K. Interfaol elektron doska. Ma'rifat. 2013y. 6-fevral

## **II-Bob Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi.**

### **2.1 Axborot kommunikatsiya texnologiyalari barkamol avlod istiqbolinibelgilovchi omil**

“Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, oqni qoradan, do‘stni dushmandan ajratishga qodir bo‘lgan, bizning qanday boy tarix va merosga ega ekanimizni anglab yashaydigan, imon e‘tiqodli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar rug‘ida tarbiya topgan insonlar etib voyaga etkazishimiz, bu masalani hech qachon ikkinchi darajali vazifa deb bilmasligimiz kerak”<sup>11</sup> deydi,-birinchi prezidentimiz Islom Karimov.

Dunyoda kechayotgan zamonaviy globallashuv jarayonlari uzluksiz ta‘lim tizimida, uning turli bosqichlarida yoo‘larni mustaqil fikrlaydigan inson etib tarbiyalashni taqozo qilmoqda. Bu o‘z navbatida, jamoat tashkilotlarining faoliyatini jonlantirish, ularning davlat boshqaruvi bilan hamkorligini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati xavfsizligini oshirish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan bir qatorda, siyosiy va huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun keng imkoniyat yaratib bermoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta‘lim va ommaviy axborot vositalari sohasida xalqaro huquqiy me‘yorlar talabiga javob bera oladigan mustahkam milliy qonunchilik bazasi shakllantirildi. Zamonaviy talab va standartlar hamda konstitutsiyaviy tamoyillar asosida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasining “ta‘lim to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”. Axborotlashtirish to‘g‘risida Maktab ta‘limini rivojlantirish davlat umumilliy dasturi, Bolalar musiqa va san‘at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha davlat dasturi,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga 2011 yil

Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va rivojlantirish tadbirlari majmuasi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sohasiga jadal sur'atlar bilan kirib borishiga xizmat qilmoqda.<sup>1</sup>

O'zbekiston respublikasi Prezidenti tomonidan 2012 yil 21 martda qabul qilingan "Zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, unda ayniqsa, yuridik va jismoniy shaxslar axborot tizimlarining bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi asosida milliy axborot tizimini shakllantirishni ta'minlash davlat organlarining o'z funksiyalarini bajarishda tezkorlik va sifatni oshirishga imkon beruvchi faoliyatini avtomatlashtirish axborot tizimlarini yaratish; davlat organlari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari ro'yxatini kengaytirish va sifatini yaxshilash, tegishli axborot resurslaridan keng ko'lamda, shu jumladan, qishloq joylarda foydalanishni ta'minlash. Axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini, shu jumladan, axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish holatini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida boshqarish tizimini takomillashtirishini ta'minlash borasida ustivor vazifalar belgilab berilgan.

Ma'lumki, qonunlar qanchalik sukammal bo'lmasin, agar ular hayotga samarali tatbiq etilmasa, qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar yuksalish bo'lmaydi. Shu ma'noda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari hamda Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitalarining kengaytirilgan yig'ilishlarida qonunlarning ijrosi yuzasidan mutasaddi korxonalar tashkilotlar va muassasalar rahbarlarining axborotlari tinglanmoqda. Ta'kidlash joizki. Mazkur tadbirlar avvalida qo'mitalar ishchi guruhlari tuzilib, mazkur tuzilmalarning mintaqalarda qonunlar ijrosi bo'yicha qilingan ishlar o'rganilmoqda. Shuningdek, ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi atroflicha taxlil qilinmoqda<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga 2011 yil

2012 yil 18 iyundida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari Qo‘mitasining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning xalq ta‘limi vazirligi va O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi markazi tizimlarida ijro etilishi yuzasidan 2011 yil 8 iyulida qabul qilingan Qo‘mita qarori ijrosining monitoringi yakunlari muhokama etildi. Yig‘ilishda ta‘kidlaganidek, o‘quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va Internet texnologiyalarini keng joriy qilish maqsadida optik tolali aloqa liniyasi orqali yuqori tezlikdagi “Elektron ta‘lim” milliy tarmog‘i barpo etilib, ta‘lim muassasalarini yagona korporativ tarmoqqa ulash yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ta‘lim muassasalarini kompyuter texnikasi va multimedia vositalari bilan ta‘minlash, ularni internet va ta‘lim tarmog‘iga ulash ishlari belgilangan reja asosida amalga oshirilmoqda.

Birgina 2011 yilda umumta‘lim maktablari va o‘rta-maxsus o‘quv muassasalarini zamonaviy kompyuter vositalari bilan jihozlash loyihasi doirasida 376 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, ular qoshidagi 280 ta axborot-resurs markazlari, 2154 ta umumta‘lim maktablari kompyuter sinflari va multimedia texnologiyalari bilan ta‘minlangan. Umumta‘lim maktablarining 423574 nafar, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarining 115836 nafar pedogog –xodimlari malaka oshirish kurslarida o‘qitildi. O‘quvchi –yoshlarni ta‘limga oid axborotlar bilan ta‘minlash maqsadida, o‘tgan o‘quv yilida jamoat axborot ta‘lim tarmog‘iga 200 dan ortiq o‘quv adabiyotlari va o‘quv dasturlari, 1900 dan ortiq ta‘lim resurslari joylashtirilgan. Zamonaviy o‘quv materiallari bilan foydalanish imkoniyatini ta‘minlovchi axborot –ta‘lim portali yaratilib, unga 40 dan ortiq multimedia materiallari, virtual laboratoriya, turli testlar va boshqa kerakli axborotlar joylashtirilgan.

Xususan, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish borasidagi ishlar ko‘lami samarali ekanligini e‘tirof etish mumkin. Bugungi kunda ushbu tashkilot boshqaruvi xodimlari to‘liq kompyuter bilan ta‘minlangan. E‘tiborlisi, barcha kompyuterlar korporativ

tarmoqqa ulangan. Harakat rasmiy sayti orqali yoshlarga interaktiv xizmatlar ko'rsatilib kelinmoqda. Madaniyat va sport ishlari, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari ham qonunlar talabalaridan kelib chiqib, qator ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, vazirliklarning markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tegishli idoralarda axborot tizimlari va veb-saytlar yaratilgan, ularning uzluksiz hamda xavfsiz ishlashi ta'minlangan. Interfaol xizmatlar turini ko'paytirish va sifatini yaxshilash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Parlament qo'mitalari yig'ilishlarida muammo va kamchiliklar atroflicha tahlil qilinmoqda. SHuningdek, axborotni aholiga etkazish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishga mas'ul xodimlarning bilim va malakasini muntazam oshirib borish, axborot tizimlari hamda axborot resurslari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, saylovoldi dasturi asosida O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi mamlakatimizda innovatsion texnologiyalar va ishlanmalarni keng amaliyotga tatbiq etilishini qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan partiya zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish, internet tarmog'idan umumiy foydalanish punktlari sonini ko'paytirish tarafdori. Chunonchi, zamonaviy telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarining ahamiyati jamiyat hayoti va yoshlar tarbiyasida yil sayin oshib bormoqda. SHu bois, internet tarmog'i orqali internet xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirishda aholining barcha qatlamlari, shu jumladan yoshlar manfaatlarini inobatga olinishi lozim. Internet tarmog'ining milliy segmentini rivojlantirish uchun esa tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar milliy madaniyatimiz, ma'naviy qadriyatlarimiz, sport sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar hamda qo'lga kiritilayotgan yutuqlar ahamiyatini ochib berish bo'yicha axborot manbalarini yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>1</sup>

Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun iqtisodiyotimizning boshqa tarmoqlari qatori ta'lim jarayonlariga ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishda muhim omil bo'lmoqda. Xususan, o'quvchi – yoshlarga bilim berish sifati va mazmunini yanada takomillashtirish, uni davr



talablari asosida yo'lga qo'yish, umumiy ta'lim va kasbiy fanlarga oid ma'lumotlarni muntazam boyitib, yangilab borishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish muhim o'rin tutadi. Mazkur qonunning hayotga izchillik bilan tatbiq etilishi natijasida ta'lim jarayonini axborotlashtirish, ta'lim muassasalari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilishga oid loyihalarga muvofiq umumta'lim maktablari va o'rta –maxsus ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuter jixozlari va texnikasi bilan ta'minlash, o'quv jarayonida multimedia va elektron darsliklardan, raqamli ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish, ularda axborot-resurs markazlarini tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlashjoizki, jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish, uni yanada rivojlantirishga oid keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida 9400 ta umumta'lim maktabi va 1348 ta o'rta maxsus ta'lim muassasasi mazkur tarmoqqa ulangan. Bu esa, ota-onalar, o'quvchilar, o'quvchi yoshlar, pedagogika sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlar uchun ta'lim, ilm-fandagi so'ngi yangiliklardan boxabar bo'lish, maktablararo o'zaro tajriba almashish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishida "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning xalq ta'limi vazirligi va O'rta maxsus kasb-xunar ta'limi markazi tizimlarida ijro etilishi yuzasidan 2011 yilning 8 iyulida qabul qilingan Qo'mita qarori ijrosining monitoringi yakunlari muhokama etildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi raxbarlarining axborotlari tinglandi.

Yig'ilishda Xalq ta'limi vazirligi va o'rta maxsus kasb –xunar ta'limi markazi tomonidan axborotlashtirish to'g'risidagi Qonun talablari doirasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, o'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va internet texnologiyalarini

joriy qilish, axborot resurslarini yaratish, ulardan samarali foydalanish, ta'lim – tarbiya tizimida interfaol usullardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, o'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va internet texnologiyalarini joriy qilish maqsadida optik tolali aloqa liniyasi orqali yuqori tezlikda "Elektron ta'lim" milliy tarmog'i barpo etilib, ta'lim muassasalari yagona korporativtarmoqqa ulash yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>.

E'tirof etilganidek, ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi va multimedia vositalari bilan ta'minlash, ularni internet va ta'lim tarmog'iga ulash ishlari belgilangan reja asosida amalga oshirilmoqda. Birgina 2011 yilda umumta'lim maktablari va o'rta –maxsus o'quv muassasalarini zamonaviy kompyuter vositalari bilan jixozlash loyihasi doirasida 376 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, ular qoshidagi 280 ta axborot-resurs markazlari, 2154 ta umumta'lim maktablari kompyuter sinflari va multimedia texnologiyalari bilan ta'minlangan.

Vazirlik va Markaz tizimidagi ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha malakasini oshirish maqsadida maxsus o'quv dasturi asosida umumta'lim maktablarining 423574 nafar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining 115836 nafar pedogog-xodimlari malaka oshirish kurslarida o'qitildi.

O'quvchi yoshlarni ta'limga oid axborotlar bilan ta'minlash maqsadida, o'tgan o'quv yilida jamoat axborot ta'lim tarmog'iga 200 dan ortiq o'quv adabiyotlari va o'quv dasturlari 1990 dan ortiq ta'lim resurslari joylashtirilgan. Zamonaviy o'quv materiallari bilan foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi axborot ta'lim portali yaratilib unga 40 dan ortiq multimedia materiallari, virtual laboratoriya, turli testlar va boshqa kerakli axborotlar joylashtirilgan.

Shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi va o'rta –maxsus, kasb-xunar ta'limi markazi tizimida axborotlashtirish sohasidagi mavjud muammo va kamchiliklar

---

<sup>1</sup> Yusupov A. Jamiyat qurilishi tizimida axborot- kommunikatsiyalardan keng foydalanish yo'nalishlari fuqarolik jamiyati. 2011 yil 2-son

xususida ham fikr-mulohazalar bildirildi. Bu borada Vazirlik va Markaz faoliyatini avtomatlashtirish maqsadida maksimal ravishda axborot tizimlarini joriy etish, elektron xujjat almashinuvi tizimini yaratish, elektron raqamli imzo texnologiyasidan samarali foydalanishni ta'minlash, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot tizimlarini va texnologiyalarini joriy qilish va internet tarmog'idan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan qator taklif-mulohazalar bildirildi.

Tadbirda ta'lim portalini resurslar bilan boyitish, zamonaviy AKT, kompyuter texnikasi, internet tizimi va jamot ta'lim axborot tarmog'idan samarali foydalanish, ta'lim maskanlarida lokal tarmoqlarni tashkil etish borasida tavsiyalar ham bildirildi.

- O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining saylovoldi Platformasida xalqimizning ilmiy-tarixiy merosini chuqur o'rganish va erishilgan yutuqlarni ulg'ayib kelayotgan avlod o'rtasida ken targ'ib qilish, yoshlarda milliy tarix va xalq an'analariga nisbatan chuqur hurmat tuyg'usini uyg'otish, yuksak ma'naviyatli, komil insonni tarbiyalashga xar tomonlama ko'maklashish alohida o'rin tutadi,-dedi O'zMTDP fraksiyasi a'zosi Shuxrat Dehqonov.- Albatta, bugungi axborot globollashuvi davrida yosh avlodni milliy mentalitetimiz va ma'naviy qadriyatlarimizga yot bo'lgan, ularning sog'lig'i va ma'naviy – axloqiy rivojlanishiga zarar etkazuvchi axborot xurujlaridan himoya qilish masalalari bu o'rinda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda echimini kutayotgan masalalarni hal etish vazifasi yoshlarning qiziqishlariga muvofiq milliy axborot tizimlari va resurslarini yaratish, ularning axborot axborot texnologiyalariga oid bilimlarini zamon talablariga mos tarzda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Bu boradagi qonunchilik mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida fraksiyamiz a'zolari faol ish olib borishayotganini ta'kidlash joiz. Shuningdek, internet tarmog'ini milliy qadriyat va an'analarimizni o'zida aks

ettiruvchi veb sahifalar bilan boyitish, yoshlarning bilimlarini oshirishga qaratilgan loyixalarni ishlab chiqish, bir soʻz bilan aytganda, ularda axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz lozim.

## **2.2. Globallashuv davrida axborot tahdidlari va ularning oldini olish yoʻllari**

Har kuni virtual makonda millionlab axborot resurslarining paydo boʻlishi uning xajmi daqiqa sayin oʻsib borayotganidan dalolat beradi. SHu bois, u orqali yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolardan imkon qadar oʻzimizni himoya qilishimiz lozim.

Ayni paytda zamonaviy fanlar oʻrganayotgan masalalar orasida globallashuv muammosidan dolzarbroq mavzuni topish mushkul. Chunki uning texnologik, moliyaviy siyosiy, madaniy, ekologik va ijtimoiy jixatlari bilan nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki butun dunyo yuzma-yuz turibdi. Ayniqsa, axborot sohasidagi globallashuv insonlar hayotini tubdan oʻzgartirib yubordi. Hozirgi kunda axborot mahsulotlarining dunyo bozoridagi daromadi “qora oltin”, samolyotsozlik va avtomobilsozlik kabi sohalar daromadidan ham oshib ketdi. Globallashuv kompaniyalar va birlashmalarga ijtimoiy iqtisodiy muammolarni samarali hal etishda ulkanimkoniyatlar yaratadi. Insoniyatning bilimi oʻsishida, savdo, tijorat, marketing, turizm va boshqa koʻplab sohalarni oʻzlashtirishda internet imkoniyatlari va xizmatlaridan koʻz yumib boʻlmaydi.

Avvalo, axborot globallashuvi natijasida bir millat ongiga boshqa bir millat madaniyati, urf-odati va xayot tarzi singib borishi mumkin. Bunda kinofilmlar, teleseriallar, qoʻshiqlar va kliplar aloxida oʻrin tutadi. Shuningdek, axboriy globallashuv natijasida jaxondagi kam sonli xalqlar tilining mavqei pasayishi, xotta, ayrimlarining yoʻqolib ketishi kuzatilmoqda. Qolaversa, axboriy globallashuv natijasida bir qator yirik davlat dunyo axborot olamida hukmronlikka intila boshlaydi. Natijada davlatlar bir-birini ichki va tashqi axborot bozoridan siqib chiqarishga urinadi.oqibatda esa davlatlararo axborot kurashi boshlanadi. Bu

urushdan asosiy maqsad axboriy-psixologik sohada siyosiy ustunliuni ta'minlashdir<sup>1</sup>.

Axborot urushining aniq makoni mavjud emas va u axborot texnologiyalari yuksak bo'lgan, ommaviy axborot vositalari rivojlangan xududlarda "tinch urush" singari faqat g'oyaviy shaklda olib boriladi. Axborot sohasida globallashuvning foydali va ayni paytda o'ta xavfli jihatlari mavjud.

Mana shu salbiy jixatlardan ximoyalaniish uchun nima qilmoq kerak? Eng avvalo, barcha turdagi ta'lim muassasalarida yoshlarimizni ma'nan va ruhan shunday tarbiya qilish kerak, duch kelgan yot fikrni o'zlariga ibrat sifatida qabul qilib olishmasin. Axborot globallashuvni to'xtatib bo'lmaydi, biroq u orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolardan imkon qadar o'zimizni himoya qilish mumkin. Bu jamiyatning ma'lum qatlamlarining emas, barchaning birdek vazifamizdir.

Bizningcha, fuqarolik pozitsiyasiga ega insongina jamiyatning asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur anglaydi. SHu bilan birga fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qilib, ma'naviy komillikka erishuvida asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Eng muhimi, fuqarolik pozitsiyasi insonga o'zligini anglab olishda yordam beradi. O'zligini anglagan inson o'tmishi bilan faxrlanib, unga munosib bo'lishga intiladi. Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish-bu xalqning tarixi, ma'naviy qadriyatlarini vatanimizning imkoniyatlari va istiqbolini bilish hamda qadrlash, faxrlanish, milliy manfaatlarni oshirishga xarakat qilishni tarbiyalash demakdir.

Bir so'z bilan aytganda, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali vatanparvar, milliy qadriyatlarga sodiq, yurtimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini to'g'ri anglaydigan, ularni davom ettirishga qodir shaxslarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz. O'shanda yoshlar

---

<sup>1</sup> Yusupov A. Jamiyat qurilishi tizimida axborot- kommunikatsiyalardan keng foydalanish yo'nalishlari fuqarolik jamiyati. 2011 yil 2-son

jamiyatda ma'naviy shakllangan etuk shaxs sifatida harakatlanadi hamda jamiyatimizning bunyodkor kuchiga aylanadi.

Bugun O'zbekistonda 1032 ta internet kafelar, 939 ta internet pravoyderlar, 187 ta davlat axborot resurslari, yoshlar davlat portali, 1026 ta axborot kutubxona muassasalari faoliyat yuritmoqda.

Bugun O'zbekiston bo'yicha xorijda ro'yxatdan o'tgan internetdagi ijtimoiy tarmoq saytlaridan foydalanuvchilar 350 ming nafarga yaqinni tashkil qilmoqda. Afsuski, mamlakatimizdagi "doira uz", "vsetut. uz" "Odnoklassniki", kabi milliy domenda ro'yxatga olingan saytlardan foydalanuvchilar jamlansa ham yuqoridagi miqdorga etmaydi.

Xorazm viloyatida 22 ta internet klub va kafelar ro'yxatdan o'tgan. Shundan 11 tasi ayni paytda faoliyat ko'rsatmoqda. Tekshirishlar natijasida ayrim "kompyuterxonalar"da milliy urf-odatlarimizga to'g'ri kelmaydigan, bexayolik, zo'ravonlik, shavqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotlar borligi aniqlandi.

Jumladan, Urganch shaxridagi P. Mahmud ko'chasi 13 uyda joylashgan "Kamronbek Mirzo servis" xususiy korxonasining "Internet" kafesidagi 14 ta kompyuter veb saytlarida yoshlar ongiga, ahloqi va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan- ahloqsizlik, zo'ravonlik, behayolik xususiyatiga ega bo'lgan, saqlanishi va tarqalishi taqiqlangan materiallar va bir qancha filmlar borligi aniqlandi.

Xuddi shunday axvol Urganch tumani "Qoravul" qishlog'idagi Mustaqillik ko'chasi 2-uyda joylashgan "Urganch kino-vidio" MCHJ ning "Internet" kafesida, ham aniqlangan.

Elektron xukumat to'g'risidagi qonun xujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston respublikasining elektron hukumat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Davlat organlarining eismoniy va yuridik shaxslarga axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari

ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi;

Davlat xizmati- ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat. Agar qonun hujjatlariga muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, ular ham davlat xizmatini ko'rsatishlari mumkin;

Elektron hukumatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

Ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

O'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, YAgona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona restrini shakllantirish;

Aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida "bir darcha" prinsipini joriy etish;

Tadbirkorlik sub'ektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruv, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;

Tadbirkorlik sub'ektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini,

shuningdek, kommunal xizmatlarini hisobga olishing, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish<sup>1</sup>.

Naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Xalqimizning yutuqlarini ko'ra olmaydigan bad niyatli kimsalar ham borki, ular chetdan turib, o'zlarining yot g'oyalarini singdirishga xarakat qiladilar. Misol uchun birgina 2011 yilning o'zida jami 9,5 mingdan ortiq kibexujumlar uyushtirilgan. Internetresurslari orqali faxsh, giyohvandlik, zo'ravonlik, terrorizm, foshizm, natsizm va shovinizm kabi yovuz g'oyalarning tarqatilayotgani har qanday aqli raso odamni tashvishga soladi.

Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz bola zo'ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foiz bola millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borishni aniqlashdi.

Yunisef tomonidan o'tkazilgan so'rovlar esa internetdan foydalanadigan bolalarning 90 foizi ahloqsiz surat va videolarga duch kelishi 60 foizi bu turdagi axborotni maqsadli ravishda izlaganini ko'rsatadi. Ayniqsa, kompyuter va qo'l telefonlari ba'zi bir yoshlarimiz uchun ahloqsizlik manbaiga aylanib qolmoqda. Bunday mafkuraviy hurujlar o'spirinning ma'naviy dunyosiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Ulardagi mehr –oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi milliy ma'naviy tushunchalar, qarashlar o'rnini yovuz g'oyalar egallay boshlaydi.

Internet foydalanuvchilariga eng ko'p xavf tug'dirish mumkin bo'lgan va keng tarqalgan xujum- fishing ekan. Fishning –bu internet- firibgarlikning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, uning maqsadi foydalanuvchilarning sir tutadigan shahsiy ma'lumotlari (yashash manzili, telefon raqami, kredit kartasining raqami, parol)ga yashircha buzg'inchilik yo'llari orqali ruxsatsiz kirishga qaratilgan.

---

<sup>1</sup> G'ayimova R. Ommaviy axborot vositalarining yoshlarni mustaqil fikrlaydigan inson etib tarbiyalashdagi ahamiyatga doir. Fuqarolik jamiyati. 2012 4-son



Bugungi kunda internet jinoyatchilarining xujumiga hatto kompyuterni yoqmasdan ham tushib qolish mumkin. Chunki kibir jinoyatchilar har erda uchraydi. Ular zararlangan viruslarni mobil telefonlar, planetlar va hatto bankomatlariga ham tarqatib yuborishni uddalashmoqda.

Shaxsiy kompyuterlar esa, birinchi navbatda ana shunday xavfga duchor kuchli himoyaga ega bo'lmagan brauzerlarni nishonga olishadi. O'zining g'arazli milliy manfaatlarini qondirish maqsadida qulay geosiyosiy joylashuvdan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lish geostrategik va boshqa boyliklarni qo'lga kiritishga bo'lgan intilish, bugungi kunda "rangli" yoki "yumshoq" inqiloblarini amalga oshirishga yordam beruvchi xomiylarning asosiy maqsadiga aylanganligi hech kimga sir emas. Aslida, demokratiya niqobi ostida ish ko'ruvchi "Rangli inqilobchi"larning u yoki bu mamlakatning demokratlashvi va shu asosda barqaror taraqqiy qilishi bilan hech qanday ishi yo'q. Bu o'rinda ular tomonidan hujum ob'ektiga aylantirilgan mamlakat yoki mintaqada beqaror vaziyat keltirib chiqarilsa bas.

Ma'lumki, Serbiyada 2000 yilda bo'lib o'tgan "gullar inqilobi", 2003 yil Gruziyada, 2004-2005 yillarda esa Ukrainada yuz bergan sariq inqiloblar aslida rangli inqiloblarning yagona ssenariylari asosida amalga oshirilgan edi.

Demak, rangli inqilob texnologlari aslida ayrim davlatlarning er kurrasining turli mintaqalaridagi moddiy intilishlarining g'oyaviy ifodalovchilari bo'lib xizmat qilmoqdalar.

Global tarmoqda o'z joniga qasd qilishning eng oson yo'llarini targ'ibot qiluvchi 4 mingdan ziyod saytlar mavjud.

Xozirda dunyodagi 42 foiz bolalar va o'spirinlar onlayn pornografi ta'siriga tushmoqda. Shuningdek, kompyuter o'yinlarining 49 foizi zo'ravonlik va yovuzlik, 41 foizi esa o'ta jangari ruhda ekanligi ham uning oqibatida yuzaga keladigan ma'naviy zararni yanada yaxshi tasavvur qilish imkonini beradi.

"Ommaviy madaniyat" ma'naviy-mafkuraviy taziqiqning eng xavli ko'rinishlaridan biri bo'lib, ma'naviyatga, milliy qadriyatlarga qarshi qaratilgan tajovuzdir. "Ommaviy madaniyat" tomonidan yaratilib, oxir-oqibatda insonni

manqurt darajasiga tushuradigan, xalqni esa olomonga aylantirish mumkin bo'lgan illat, bir so'z bilan aytganda, g'ayriahloqlikdir.

“Kosmotolizm”so‘zi lotincha “dunyo fuqarosi” degan ma’noni anglatadi. Uning asosiy maqsadi-milliylik emas, sayyoraviy fuqarolikni targ‘ib qilishdir. Bu ta’limot davlat suverenitetini rad etadi, insonlarni vatanparvarlik tuyg‘usidan voz kechishga undaydi.

Bugungi kunda xakerlar tomonidan sodir etilayotgan kiber jinoyatlar jaxon mamlakatlarini jiddiy xavotirga solmoqda.

“Xaker” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, u kompyuter dasturlari, axborotlari va internet resurslarni buzib, mazkur tizim egasiga zarar etkazuvchi malakali dasturchilarga nisbatan qo‘llaniladi.

Hozirda ushbu kiberjinoyatchilar hujumini hatto eng yaxshi himoyalangan yirik kompaniya va korporatsiyalar ham bartaraf eta olmayapti.

Axborot bugungi kunning eng qudratli quroli bo‘lib qoldi. Harbiy vositalar etib bormaydigan joylarga xam o‘zida har xil ma’lumotlarni jamlagan axborot zamonaviy shaklda kirib bormoqda.

Axborot kurashi, Eng avvalo, fikr, tafakkur, aql kurashidir. Bu kurashda “Raqib zarbasi” uchun qulay bo‘lgan himoyasiz joyni qoldirish mumkin emas. Shunday holat yuz bergudek bo‘lsa, orzu- intilishlarimizga mutlaqo yot qarashlar, begona g‘oyalar hayotimizga sezdirmay kirib kelishi shubhasiz.

Bugungi kunda ayrim g‘arb davlatlari tomonidan Markaziy Osiyoga o‘z siyosiy va geosiyosiy maqsadlarda “G‘arb demokratiyasi” modelini majburlab targ‘ib qilish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Qirg‘iziston va Andijon voqealari buning yorqin dalilidir.

Xozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda internetdan foydalanish ko‘nikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grafinga qarshi kurashishning o‘ziga xos usuli sifatida ko‘rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma’lumotlarning qanchalik haqqoniy va to‘g‘ri ekanini tekshirishga o‘rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o‘smirlar uchun zarur. Internetda grifingdan tashqari o‘smir yoshlar uchun yana bir qancha

xavflar ham bor. Ya'ni bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarning foydalanishga ochiqligi, vertual firibgarlikka keng yo'l qo'yilgani ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga etaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'lig'iga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi tabiiy<sup>1</sup>.

Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi xech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn savdolarida qatnashish imkoni bilan birga kichik o'yinchoqdan tortib to eng so'ngi rusumdagi mashina sotib olish huquqiga ham ega bo'ladi. Bu esa ularni vertual firibgarlarning nishoniga aylantiradi. Shu sabab global tarmoqdan foydalanuvchilar ko'p bo'lgan belorusda bu kabi muammolar qator yangi kasblarning vujudga kelishi ham turtki bo'lgan. Yangi turdagi mazkur mutaxassislarning vazifasi oilada internetdan foydalanish madaniyatini joriy etadigan hamda bolalarga psixologik, ma'naviy hamda jismoniy zarar etkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ko'plab jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar o'z faoliyatini internetning bolalarga ta'siri va undan bo'ladigan zararning oldini olish usullarini o'rganishga qaratgan. Jumladan, internet mazmunini baholash assotsiatsiyasi mustaqil xalqaro tashkilot bo'lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko'ngilsizlik va xavfli munosabatlar xaqida ogohlantirish, kibermakonda bolalarni noto'g'ri axborotlardan himoyalash va so'z erkinligini ta'minlashdan iborat. Ota-onalarga mavjud muammolar yuzasidan maslaxat, ko'mak beradigan kiberfarishtalar – internetda bolalar huquqini himoya qilishga yo'naltirilgan Evropadagi ilk tashkilotga 1995 yili asos solindi va ayni paytda unga AQSH va Kanada kabi davlatlar ham a'zodir. Muammolar chuqurlashgani sayin bu kabi tashkilotlar xam

---

<sup>1</sup> G'ayimova R. Ommaviy axborot vositalarining yoshlarni mustaqil fikrlaydigan inson etib tarbiyalashdagi ahamiyatga doir. Fuqarolik jamiyati. 2012 4-son

keng ko‘lamda tadqiqotlar o‘tkazish va mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurash choralarni ishlab chiqishni kuchaytirmoqda. Xususan, Bolalarni asraylik xalqaro huquqiy tashkiloti o‘tkazgan so‘rovnomalar natijasida ma’lum bo‘ldiki, AQSHdagi 15-17 yashar o‘smirlarning 85 foizi, Kanada yoshlarning 93 foizi muntazam ravishda internetdan foydalanadi. Kommunikatsiya vositalari tadqiqoti assotsiatsiyasi olgan natijalariga ko‘ra esa, o‘smirlar katta yoshlarni 2004 yildayoq internetdan foydalanish bo‘yicha ortda qoldirgan.

So‘ngi paytlarda internet orqali ta’qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo‘lsak, grafik holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar qatlami, xususan, o‘smirlar hisoblanadi. Bir qarashda beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni ba’zan jinoyatgacha etaklab borayotgani hayotiy haqiqat. Grifing bilan shug‘ullanadiganlar yoki grifyorlar zamonaviy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo‘lib, onlayn konferensiya, forum xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritilish, o‘zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko‘rsatishi mumkin, buning ustiga veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi. Grifing bilan kurashishning eng oddiy usuli kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlarini o‘rnatish.

Zamonaviy texnologiyalarning tez sur‘atlarda o‘shishiga qaramay, ba’zan odamlar ulardan qanday oqilona foydalanish kerakligini to‘liq anglab etmaydi. Kompyuter va internetgacha bo‘lgan davrda o‘sib ulg‘aygan aksariyat ota-onalar va muallimlar agar bola internetdan foydalana boshlasa, albatta, foydasidn zarari ko‘proq, deb o‘ylaydi. Bolani kompyuter yoki intrnetdan chalg‘itish xarakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya’ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o‘zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashuv, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani e’tiborga loyiq: bolalarda kibernetik do‘stga nisbatan munosabat aynan kattalarning tutgan yo‘lidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shubhasiz internet bilim va kerakli axborotni olish

uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta xajmdagi axborotning barchasini xam ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarnig to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilardi. Buning uchun bolalarga internetdan hoxlagan odam o'z sahifasini ochishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi, bu borada unga xech kim to'sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo'naltirish jarayonida faktlarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanihga ularni o'rgatish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Masalan, kompyuter tarmoqlari orqali bank tizimlariga kirish va u erdan pul mablag'larini o'marish. Misol sifatida kredit kartalari bilan amalga oshirilayotgan aferalar har yili 400 million dollar atrofida zarar keltiradi. Viruslardan ko'rilgan zarar esa 12 milliardni, mualliflik huquqining buzilishi 250 milliardga yaqin zarar keltiradi.

Turli kompyuter tizimlariga kirish bilan kiberterrorchilar har xil, shu jumladan yashirin axborotga ham yo'l topadilar. Zamonaviy kiberterrorchilikka 1998 yili AQSHda amalga oshirilgan qotillik ham misol bo'la oladi.

Geosiyosat xozirgi davrda dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, siyosat falsafasida keng qo'llanilmoqda. U ko'p qirrali tushuncha bo'lib, turli davlatlarinng o'z manfaatlarini ko'zlagan xolda ma'lum xududga nisbatan yuritadigan siyosatini bildiradi. Masalan, O'zbekistonni olsak, u bilan o'zaro iqtisodiy va boshqa sohalarda aloqa qilishni yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan xar bir davlat O'zbekistonning Markaziy Osiyoda eng yuqori salohiyati, er usti va er osti boyliklari, ishchi kuchlariga boy ekanligini, Evropa va Osiyoni O'zaro bog'lovchi yo'lning tugun nuqtasi ekanligin, uning mintaqada tutgan tinchliksevar siyosati, iqtisodiy va siyosiy barqarorligini nazarda tutgan holda siyosat yurgizadi.

Mamlakatimizning Markaziy Osiyoda tutgan o'rni nihoyatda o'ziga xos. O'zbekiston Markaziy osiyodagi eng yirik axolisining soni eng ko'p va iqtisodiy, ilmiy ijtimoiy salohiyatini yuqori bo'lgan mamlakatdir. Buning ustida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishni muvaffaqiyatli modeli ishlab

chiqarilgani va amalga oshirilishi, mamlakatda ishonchli, tinchlik barqarorlikning mavjudligi, uning xalqaro masalalarni xal qilishdagi faolligi shunday natijaga olib keldiki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi biror jarayonda O'zbekiston ishtiroki nazarga olinmay iloji yo'q.

Tinchlik va xavfsizlik masalalari avtomobil va temir yo'l aloqa kommunikatsiyalarini bunyod etish, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalarida O'zbekiston etakchi rol o'ynashi tabiiy<sup>1</sup>.

Axborot olish kafolatlari va erkinligi har bir shaxsning o'zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatishga haqli ekanini bildiradi. Mustaqillik yillarida yurtimizda bu borada mustahkam xuquqiy poydevor yaratildi. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasida barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar fuqarolarga ularning xuquq va manfaatlariga daldor bo'lgan hujjat, qaror va boshqa xil axborotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligi belgilab qo'yilgan. 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunga ko'ra, mamlakatimizdagi har bir fuqaro o'z manfaatlariga daxldor axborotlarni olish imkoniyatiga ega. Hozirgi globallashtirish jarayonida axborot g'oyaviy ta'sir o'tkazish vositasiga aylanib bormoqda. Ayrim mafkura poligonlari o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishda axborot xurujlaridan foydalanmoqda.

Axborot urushida oddiy urushda qo'llanadigan qirg'in vositalari ishlatilmaydi. Uning obe'kti –omma yoki alohida shaxslar ongidir.

Dizinformatsiya muayyan guruh va doiralarning g'arazli maqsadlariga erishish yo'lida soxta ma'lumotlardan foydalanish asosida ijtimoiy fikrni chalg'itish maqsadida matbuot, radio va televideniya qo'llanadigan usul, vosita. Masalan, Ikkinchi jaxon urushi davrida u tashviqotda keng qo'llanilgan. Soxta axborot ovoza va shov-shuvlar tarqatish, konfidensial ma'lumotlar oqib ketishini tashkil qilish muayyan faktlarni bo'rttirib yoritish, ziddiyatli xabarni tarqatish.

---

<sup>1</sup> G'ayimova R. Ommaviy axborot vositalarining yoshlarni mustaqil fikrlaydigan inson etib tarbiyalashdagi ahamiyatga doir. Fuqarolik jamiyati. 2012 4-son

Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'nalitirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyulgan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkinligi haqida ogohlantirildi. Biz bunday xatarlarga doim sergak, ogoh va xushyor bo'lib yashashimiz, ularga qarshi xar tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berishimiz zarur. Ana shundagina aholimiz, ayniqsa, yoshlarimiz voqelikka ochiq ko'z bilan qarab, jaxonda va yon atrofimizda mavjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va ulardan tegishli xulosa va saboq chiqara oladi.

## **XULOSA**

Mamlakatimizda zamonaviy axborot makoni shakllantirish va takomillashtirish , axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat sektorida

rivojlantirish masalalariga mustaqil taraqqiyotimizning ikkinchi bosqichidan boshlab alohida e'tibor qaratildi. Xususan, O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 mayda qabul qilingan "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish to'g'risida"gi farmonida bu masala o'z aksini topgan. Bu borada 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi 2005 -2010 yillarda milliy telekommunikatsiya tarmog'i va ma'lumot uzatishni rivojlantirish Dasturi va 2005-2010 yillarda davlat boshqaruviga axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish davsturi ishlab chiqilib, muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda.

Xozirgi bosqichda axborotlashtirish sohasi zamonaviy axborot texnologiyalari negizida jadal rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda respublikamiz shaharlari va tuman markazlari raqamli telekommunikatsiya tarmoqlari bilan qamrab olingan.

Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari rivoji tahlili mamlakatimizda bu soha rivojidadagi umumiy ijobiy jarayonlar, ayniqsa, elektron hujjat va tijorat segmentlarida, internet tarmog'idan foydalanish, axborot xavfsizligi borasidagi ijobiy oshishni ko'rsatadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivoji tahlili bo'yicha, 2010 yil boshida O'zbekiston milliy domenining soni 9546 tani tashkil etgan bo'lsa, xozirgi kunga kelib, ularning soni 11 mingdan oshib ketdi. 2007 yili bu ko'rsatkich 3616 tani tashkil etgan, xozirgi vaqtda domenda ro'yxatga oluvchi ettita markaz faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston mobil aloqa xizmatini hozirgi vaqtda beshta aloqa operatorlari amalga oshirmoqda. Bularning eng yiriklari MTS-O'zbekiston, "Bilayn" kompaniyalari bo'lib, ular GSM standartida faoliyat yuritadilar. Xorijiy ekspertlarning ta'kidlashicha, O'zbekiston dunyoning yuqori darajadagi uyali aloqa rivojlanishi indeksiga ega bo'lgan davlatlari o'ntaligiga kiradi. Ushbu ko'rsatchiklar respublikamizda demokratik islohatlarning izchil amalga oshirilayotganining yorqin tasdig'idir.

Axborot infratuzilmasini modernizatsiyalashning amalga oshirilishi axborot kommunikatsiya tizimining fuqarolik jamiyati institutlaridagi o'zni va rolining



yanada mustahkamlanishi hamda mamlakatimizning jaxon hamjamiyatiga teng huquqli hamkor sifatida kirib borishining muhim shartidir.

O‘zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ijtimoiy xayotimizning barcha sohalariga keng joriy qilish bo‘yicha huquqiy baza yaratilgan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari xayotimizga keng tadbiiq qilinmoqda. Mamlakatimizda internet tarmog‘i rivojlanib bormoqda.

Shuning bilan bir qatorda mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidakadrlarni tayyorlashga alohida axamiyat berilayapti. Buning isboti O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni ta‘lim tizimiga ham keng joriy qilinmoqda. O‘quvchi yoshlarni ta‘limga oid axborotlar bilan ta‘minlash maqsadida, o‘tgan o‘quv yilida “Ziyonet” jamoat axborot ta‘lim tarmog‘iga 200 dan ortiq turda o‘quv adabiyotlari va o‘quv adabiyotlari va o‘quv dasturlari, 1900 dan ortiq ta‘lim resurslari joylashtirilgan. Zamonaviy o‘quv materiallari bilan foydalanishi imkoniyatini ta‘minlovchi axborot ta‘lim portali yaratilib, unga 40 dan ortiq multimedia materiallari, vertual laboratoriya, turli testlar va boshqa kerakli axborotlar joylashtirilgan. Bular barkamol avlod istiqbolini belgilovchi omillardir.

Bugungi kunda axborot tahdidlarning oldini olish va ulardan saqlanish dolzarb muammoga aylangan. Axborot xurujlari kuchayib bormoqdalar. Buning uchun yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozim. Yoshlarning ma‘naviyatini yuksaltirish kerak. Internetdan foydalanish qoidalarini o‘rgatish, kompyuter savodxonligini oshirish xozirgi kunning talabidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. “O‘zbekiston”2018-yil
2. SH.M Mirziyoyev “ Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. T. “O‘zbekiston” 2017-yil

3. SH.M Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T. “O‘zbekiston” 2017-yil.
4. SH.M Mirziyoyev “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2018-yil
5. SH.M Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. T. “O‘zbekiston” 2016-yil.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi T. “O‘zbekiston”.
7. Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga 2011 yil 27 iyun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmatining veb-sayti
8. Karimov I.A. Zamonaviy axborot –telekommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risidagi 2012 y. 21 mart qarori O‘zbekiston respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi veb-sayti
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch T. “Ma’naviyat” 2008 yil
10. Karimov I.A. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori
11. Karimov I.A. “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni xalq so‘zi. 2002 y. 30 may
12. O‘zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonuni. Toshkent. 2003 y.
13. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami T. 2005y. 23-24-son
14. Axmedov T. “Elektron xukumat” mutaxassislar tomonidan fuqarolik jamiyatining kelajagi sifatida baholanmoqda. Jamiyat 2013 y. 8 fevral.
15. Muhiddinov H. Usmonov A. Shamsieva I. O‘zbekistonda axborot texnologiyalari taraqqiyoti T. “Ma’naviyat” 2011y.
16. Mahsumov S. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari: e’tibor, imkoniyat va taraqqiyot, Xalq so‘zi 2013 y. 7 fevral

17. Maxsumov S. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari: mavjud holat va ko‘rilayotgan choralar. Xalq so‘zi 2010 y. 3-iyun
18. Majidov R. Axborot erkinligini ta‘minlashda telekommunikatsiyalarning roli xususida. Fuqarolik jamiyati. 2002 y. 4-son
19. Nikoloev V. O‘zbekistonda axborot –kommunikatsiya sohasi jadal rivojlanmoqda. Ma‘rifat. 2012 y. 4 aprel
20. Sirojiddinova S. Kiber jinoyatchilik-imkoniyatga yangi tahdid, ma‘rifat. 2013 yil. 9 yanvar
21. Xolboboev A. Axborot xuruji milliy qadriyatlar kushandasi. Jamiyat. 2011 yil 5 avgust.
22. Xo‘jaev E. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari- barkamol avlod istiqbolini belgilovchi omil. Milliy tiklanish. 2012y. 20 iyun
23. Eshbekov T. Zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalari: atama va ta‘riflar. Fuqarolik jamiyati. 2012 y. 4-son
24. Nazarov Q. Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati T. “G‘ofur G‘ulom”, 2009 y.
25. O‘zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash yo‘lida. T. 2005 y.
26. Turdiev N. Usmonova K. Interfaol elektron doska. Ma‘rifat. 2013y. 6-fevral
27. Abu Bakir O‘razov. Internetdan kim qanday foydalanmoqda. Turkiston. 2013. 20 fevral.
28. Yusupov A. Jamiyat qurilishi tizimida axborot- kommunikatsiyalardan keng foydalanish yo‘nalishlari fuqarolik jamiyati. 2011 yil 2-son
29. Dehqonov SH. Axborotlashgan jamiyat yohud axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi qonunchilikni yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari. Huquq 2013 y. 28 fevral
30. G‘ayimova R. Ommaviy axborot vositalarining yoshlarni mustaqil fikrlaydigan inson etib tarbiyalashdagi ahamiyatga doir. Fuqarolik jamiyati. 2012 4-son
31. Mirzaev R. Inson omili: istiqloq, ma‘naviyat taraqqiyot. O‘zbekiston ovozi. 2012 y. 9 iyun

32.Solaev F. Axborot makonida yoshlar himoyasiz kelajagi kerak. Turkiston 2012 y. 17 noyabr

33.Botirov B. O'zga uyni izdan chiqaruvchilar. Milliy tiklanish, 2013 y. 27-fevral